2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 139 (1200), 2024-yil 12-iyul, juma

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

FARG‘ONANING TASHABBUSKOR VA MEHNATSEVAR INSONLARI ISLOHOTLARGA KAMARBASTA BO‘LSA, XALQIMIZ TURMUSHI YANADA FAROVONLASHADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev aholi hayoti, hududlar rivoji bilan yaqindan tanishish maqsadida 11-iyul kuni Farg‘ona viloyatiga keldi.

Mamlakatimizda transport infratuzilmasi sohasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Birgina havo yo‘llari tarmog‘ida Samarqand, Termiz, Mo‘ynoq, Zomin aeroportlari yangilanib, ishga tushirildi. Toshkent va Urganch xalqaro havo portlari ta’mirlanmoqda, “Toshkent-Sharqiy” qayta qurilmoqda.

Joriy yil mart oyida Qo‘qon aeroporti ham yangidan ochilgan edi. 11-iyul kuni O‘zbekiston Prezidentining samolyoti ilk bor bu yerga qo‘ndi.

Mazkur aeroport 1977-yilda qurilgan bo‘lib, yaqin yo‘nalishlarga parvozlar amalga oshirilgan. Keyinchalik faqat harbiy havo kuchlari tomonidan foydalanilgan. Modernizatsiya natijasida ushbu aeroport orqali yana fuqaro aviatsiyasi parvozlari yo‘lga qo‘yildi.

Davlatimiz rahbari bu yerdagi bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Aeroportda 100 nafar yo‘lovchiga mo‘ljallangan yangi terminal qurilgan, uchish-qo‘nish yo‘lagi qoplamasi ta’mirlangan. Zamonaviy aeronavigatsiya uskunalari o‘rnatilgan. Bu ishlar natijasida aeroport A320-200 va ATR 72-600 rusumli samolyotlarni qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Prezidentimiz endi bu aeroport xalqimizga manfaat keltirishi kerakligini ta’kidladi. Buning uchun narx va xizmatlarni odamlarga qulay qilib, parvozlarni ko‘paytirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Ichki turizm imkoniyatlaridan foydalanish yaxshi samara berishi, xalqaro reyslarni ham yo‘lga qo‘yish mumkinligi qayd etildi.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev “Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals” aksiyadorlik jamiyati faoliyati bilan tanishdi.

Mamlakatimizda kimyo sanoati jadal rivojlanmoqda. So‘nggi besh yilda bu sohada mahsulot ishlab chiqarish hajmi qariyb 2 barobarga oshib, 45 trillion so‘mga yetdi. Xususan, yangi quvvatlar hisobiga mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish hajmi 17 foizga ko‘payib, yiliga 1,4 million tonnadan oshdi. Bunda samarali investitsiya loyihalari katta o‘rin tutmoqda.

Sobiq Qo‘qon superfosfat zavodi moliyaviy sog‘lomlashtirish va diversifikatsiya qilish maqsadida 2019-yilda Singapurning “Indorama Holdings BV” kompaniyasiga investitsiya majburiyatlari bilan sotilgan edi. Uning negizida “Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals” korxonasi tashkil etildi. 70 million dollar xorijiy investitsiya jalb etilib, ishlab chiqarish texnologiyalari modernizatsiya qilindi. Ispaniya, AQSH, Xitoy, Hindiston, Turkiya va Rossiya davlatlarining yetakchi kompaniyalaridan zamonaviy uskunalar keltirib o‘rnatildi. Qo‘shimcha 150 ta ish o‘rni yaratildi.

2021-yilda modernizatsiya ishlarining birinchi bosqichi doirasida ammoniylashgan superfosfat, suvda tez eruvchan kompleks mineral o‘g‘itlar, azot-fosfor-kaliyli (NPK) mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Zavod quvvati yiliga 75 ming tonnadan 450 ming tonnaga yetkazildi.

Xomashyolar mahalliy korxonalardan olib kelinadi. Masalan, fosforit uni Qizilqumdan, sulfat kislotasi Olmaliqdan, ammoniy sulfat Chirchiqdan, ammiak “Farg‘onaazot” va “Navoiyazot”dan keltiriladi. Bu mahsulot tannarxini barqaror saqlash imkonini berayotir.

Yana bir muhim tomoni, modernizatsiya natijasida ishlab chiqarishga sarflanadigan elektr energiyasi va tabiiy gaz xarajatlarini 35-40 foizga qisqartirishga erishilgan. Bundan tashqari, atrof-muhitni ifloslantirmaslik uchun asosiy ishlab chiqarish sexlariga to‘rt bosqichli tozalash uskunalari o‘rnatilgan. Ilgari bu faqat ikki bosqichli bo‘lgan.

Korxona yiliga 30 million dollar mahsulotni eksport qilish quvvatiga ega. Bugungi kunda MDH, Yevropa, Afrika va Osiyoning 16 davlatiga mineral o‘g‘itlar eksport qilinmoqda.

Davlatimiz rahbari zavod bo‘ylab yurib, ishlab chiqarish jarayonini ko‘zdan kechirdi. Korxona yirik kimyo klasteriga aylanib, nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy namuna bo‘lishi kerakligi ta’kidlandi. Zavod xodimlari uchun zamonaviy uy-joylar qurish, kelajakda maktab va shifoxona loyihalarini ham nazarda tutish bo‘yicha fikr almashildi.

Korxona izchil rivojlanmoqda va keyingi bosqichlar bo‘yicha ham ish olib borilmoqda. Ikkinchi bosqich doirasida 50 million dollar investitsiya o‘zlashtirildi. Shveysariya, Germaniya, Hindiston, Xitoy va Italiyadan zamonaviy texnologik uskunalar keltirib o‘rnatildi. Ushbu bosqichda yiliga 24 million dollarlik kaliy sulfat, sulfat kislotasi va ammoniy-xlorid o‘g‘itlari ishlab chiqariladi. 120 ta yangi ish o‘rni yaratiladi.

Uchinchi bosqich ishlari 2025-2028-yillarda amalga oshiriladi. Unda mono va di-kalsiy fosfat, kaliy-nitrat, azot-fosfor-kaliyli kompleks mineral o‘g‘it, kalsiy xlorid, mono ammoniy fosfat, mono kaliy fosfat ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Loyiha qiymati — 100 million dollar. 235 ta ish o‘rni yaratiladi.

Davlatimiz rahbari Farg‘ona viloyatida rejalashtirilgan yangi investitsiya loyihalari bilan tanishdi.

Keyingi yetti yilda Farg‘ona viloyatiga qariyb 77 trillion so‘mlik investitsiyalar jalb etilgan. Ularning natijasida 116 mingta ish o‘rni va 4,5 milliard dollarlik eksport imkoniyati yaratilgan.

Bu yil viloyatda 1,3 milliard dollarlik mingdan ortiq loyiha amalga oshirilmoqda.

Endi Farg‘ona viloyatida xorijiy investor va mahalliy tadbirkorlar tomonidan umumiy qiymati 7 milliard dollardan ziyod 132 ta loyiha shakllantirilgan. Shundan 2,1 milliard dollarlik 25 tasi davlatimiz rahbariga taqdimot qilindi.

Loyihalarga Avstriya, AQSH, Xitoy, Rossiya, Turkiya, Germaniya, Saudiya Arabistoni, Kuvayt, Yaponiya va Ozarbayjon kabi mamlakatlar kompaniyalari investitsiya kiritmoqda. Ular to‘qimachilik, oziq-ovqat, tibbiyot, elektrotexnika, qurilish materiallari, xizmat ko‘rsatish va boshqa tarmoqlarni qamrab olgan.

Davomi 2-betda

Taraqqiyot odimlari

Mamlakatlar ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotidagi turfaxillik ularning saylov tizimida ham o‘z aksini topgan. Bu holat majoritar, proporsional va aralash saylov tizimlarining shakllanishiga sabab bo‘ldi.

ARALASH SAYLOV TIZIMI

XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUV

Majoritar saylov tizimi muayyan nomzodning saylov okrugida saylovchilarning ko‘pchilik ovozini olishi zarurligi bilan tavsiflansa, proporsional saylov tizimi vakillik organiga o‘z nomzodlarini ko‘rsatgan partiyalar o‘rtasida mandatlarni taqsimlash ular olgan ovozlar soniga muvofiq amalga oshirilishini bildiradi.

Biroq majoritar va proporsional saylov tizimining har ikkisi ham ayrim kamchiliklarga ega ekanini kuzatish mumkin. Masalan, majoritar saylovda parlamentni shakllantirishda saylovchilar bergan har bir ovoz emas, balki saylovda g‘olib bo‘lgan nomzodga berilgan ovozlar inobatga olinadi, xolos. Mag‘lub nomzodlarga berilgan ovozlar esa hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmaydi, ya’ni “kuyib” ketadi. Bundan tashqari, saylovda asosiy e’tibor nomzodlarga qaratilgani bois, ushbu tizim ko‘ppartiyaviylikning rivojlanishiga yetarlicha sharoit yaratmaydi.

Davomi 2-betda

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi

O‘ZBEKISTON 2030

MILLAT SAODATI

FAQAT VA FAQAT YOSHLAR TA’LIM-TARBIYASIGA BOG‘LIQ

Bugun mamlakatimizda kechayotgan yangilanish jarayoni, har bir soha va yo‘nalishni insonlarga qulaylik yaratish nuqtayi nazaridan zamon talablari asosida isloh qilish borasidagi sa’y-harakatlar yurtdoshlarimiz bilan bir qatorda xalqaro jamoatchilik tomonidan ham keng e’tirof etilmoqda. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: keyingi yillarda, haqiqatan, barcha yo‘nalishlarda tarixiy o‘zgarishlar guvohi bo‘lyapmiz, xo‘sh, mamlakat tinchligi va taraqqiyoti, kelajagi, aholi farovonligi, millat saodati nuqtayi nazaridan olib qaraganda, ularning eng muhimi qaysi?

Bunga har kimning o‘z qarashlariga muvofiq asosli javobi bor. Bizningcha, ularning barchasi haq. Chunki yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi yangilanishlar jarayonida hamma soha va yo‘nalish, tarmoqlarda tub o‘zgarishlar yuz berdi. Lekin qaysidir yo‘nalishni tanlash kerak bo‘lsa, maqsad qamrovi, boshqa sohalarga ta’siri nuqtayi nazaridan ta’lim tizimini alohida ajratib ko‘rsatish to‘g‘riroq bo‘ladi, nazarimda. Binobarin, yangi O‘zbekiston Uchinchi Renessansga erishishdek ulkan marrani ko‘zlagan ekan, ta’lim yo‘nalishi unga asos yaratishi, barcha soha va yo‘nalishlar bo‘yicha belgilangan yuksak maqsadlar ro‘yobiga zamin bo‘lishi bilan ahamiyatlidir.

Davomi 3-betda

Aralash saylov tizimida, eng avvalo, saylovchilar ovozini maksimal inobatga olish ta’minlanadi. Majoritar saylov tizimi asosida muvaffaqiyat qozonolmagan partiyalarga o‘zi to‘plagan ovozga mutanosib ravishda deputatlik o‘rinlari olishga imkoniyat yaratadi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 12-iyul, 139-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

FARG‘ONANING TASHABBUSKOR VA MEHNATSEVAR INSONLARI ISLOHOTLARGA KAMARBASTA BO‘LSA, XALQIMIZ TURMUSHI YANADA FAROVONLASHADI

Boshlanishi 1-betda

Masalan, Xitoy investorlari bilan hamkorlikda Uchko‘prik tumanida qiymati 50 million dollarga keramik plitalar ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilmoqda. Buning natijasida 500 nafar yangi ish o‘rni yaratiladi. Quva tumanida Saudiya Arabistoni investorlari bilan birgalikda isitish va sovitish tizimlari ehtiyot qismlari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Qiymati 50 million dollarlik ushbu loyiha yakunlangach, 350 kishining bandligi ta’minlanadi.

Mazkur 132 ta loyiha ishga tushirilishi natijasida 23 mingdan ortiq aholi ish bilan ta’minlanadi.

Prezidentimiz mutasaddilarga loyihalarning huquqiy-tashkiliy asoslarini tezlashtirish, investorlar uchun barcha sharoitlarni ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha ko‘rsatmalar berdi.

Sharoit va talabchanlik tufayli bugun barcha hududlarda ish sur’ati yuqori. Bir korxona ishga tushib, boshqalari qurilyapti. Ayniqsa, sanoat tarmoqlarida loyihalar shunchalik ko‘pki, hammasiga ulgurish qiyin.

Shu bois, davlatimiz rahbarining hududlarga tashrifi chog‘ida eng muhim loyihalarga to‘xtalish an’anaga aylangan. Farg‘ona viloyatida ham yangi korxonalarni ishga tushirish va qurilishini boshlash marosimi bo‘ldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev so‘zining avvalida so‘nggi besh yilda Farg‘onada sanoat hajmi 1,3 barobarga ko‘payganini qayd etdi. Eksport hajmi qariyb 2 barobarga oshib, 722 million dollarni tashkil etgan.

Investitsiyalar miqdori ham yil sayin o‘sib bormoqda. 2018-yilda viloyatda bor-yo‘g‘i 90 million dollar sarmoya o‘zlashtirilgan bo‘lsa, o‘tgan yili bu ko‘rsatkich 1 milliard 300 million dollar bo‘lgan. Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 470 taga yetgan.

Viloyatda 6 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalar hisobidan 110 ta va yana 1,1 milliard dollarlik 22 ta mahalliy loyiha bo‘yicha ishlar jadal ketmoqda. Ularda 20 mingdan ortiq ish o‘rni bo‘ladi.

— Ilgari viloyatda 6 ta loyiha qilish amri mahol edi. Bugun 6 milliard dollarlik loyihalar haqida gapiryapmiz. Nima uchun? O‘sdik, rivojlandik, investorlarni ishontirdik, sharoit yaratdik. Bunday ishlarni yana davom ettiramiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Birgina “Qo‘qon” erkin iqtisodiy zonasida 370 million dollarlik yuzga yaqin loyiha bajarilib, 9 mingta yangi ish o‘rni yaratildi. Ular tomonidan joriy yilning birinchi yarmida 1 trillion 500 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, 60 million dollarlik eksport qilindi.

Kuni kecha qabul qilingan Prezident qaroriga ko‘ra, ushbu sanoat zonasi Quvasoy shahri bo‘ylab 210 gektarga kengaytiriladi. Unda qiymati 1 milliard dollarlik 185 ta loyiha joylashtirilib, 12 mingta ish o‘rni yaratiladi. Bundan tashqari, Qo‘qon shahrida 230 gektar maydonda “O‘zbekiston — Xitoy” maxsus sanoat zonasi tashkil etiladi.

Viloyatdagi muvaffaqiyatli loyihalardan biri — Singapurning “Indorama” kompaniyasi bilan hamkorlikdagi mineral o‘g‘itlar zavodi. Endi uning yuqori samarador kompleks o‘g‘itlar ishlab chiqarish bo‘yicha ikkinchi bosqichi ishga tushirilmoqda hamda uchinchi bosqichi boshlanmoqda. Bularning natijasida yiliga 300 ming tonnadan ortiq mahsulot ishlab chiqarilib, qo‘shimcha 50 million dollarlik eksport ta’minlanadi.

Marosimdagi yana to‘rtta loyiha energetika sohasida. Ular — Beshariq tumanida quyosh elektr stansiyasi, O‘zbekiston tumanida elektr energiyasini saqlash tizimi, Farg‘ona tumanida kichik gidroelektrostansiyalari.

Iqtisodiyotimizda elektr energiyaga bo‘lgan talab yiliga o‘rtacha 6 foizga oshib bormoqda. Shu bois, an’anaviy manbalar bilan birga qayta tiklanuvchi quvvatlar ham rivojlantirilmoqda.

So‘nggi uch yilda 2 milliard dollar xorijiy investitsiya hisobiga quvvati 2,4 gigavatt bo‘lgan 10 ta quyosh va shamol elektr stansiyasi tarmoqqa ulandi. Yil yakuniga qadar yana 12 ta stansiyaning qariyb 2,6 gigavatt quvvatlari ulanadi. Shuningdek, hozirgi kunda jami 19 milliard dollarlik, 18,3 gigavattli 32 ta “yashil” loyiha amalga oshirilmoqda. Muhimi, bunday loyihalar har bir viloyatda bor.

Xususan, Farg‘onaning Beshariq tumanida Germaniyaning “Hyper Partners” kompaniyasi bilan 500 megavattli quyosh elektr stansiyasi qurilishi boshlanmoqda. 350 million dollarlik mazkur loyihaning dastlabki 200 megavatti shu yilning o‘zida tarmoqqa ulanib, kelgusi yilda to‘liq ishga tushiriladi. Unda yiliga 1 milliard 600 million kilovatt-soat yoki 675 ming xonadonning bir yillik iste’moliga teng “yashil” energiya ishlab chiqariladi. Natijada 466 million kub metr tabiiy gaz tejaladi.

O‘zbekiston tumanida 144 million dollar xorijiy investitsiya hisobiga 150 megavattli ilk elektr energiyasini saqlash tizimi barpo etiladi. Xitoyning “Gezhouba Group” kompaniyasi bilan hamkorlikdagi ushbu majmua shu yil yakuniga qadar ishga tushiriladi. U elektr energiyasiga talab ortgan vaqtda avtomatik ishga tushib, energetika tizimi barqarorligini ta’minlaydi.

Ushbu zamonaviy stansiyalar energetika xavfsizligini ta’minlashga, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga, ekologik barqarorlikni yaxshilashga xizmat qiladi.

Sohadagi yana bir yo‘nalish — suv resurslaridan samarali foydalanish. So‘nggi yetti yilda 630 million dollar investitsiya hisobiga 400 megavattdan ortiq yangi quvvatlar barpo etilib, gidroelektrostansiyalar quvvati 2,2 gigavattga yetkazildi.

Izlanishlar davom ettirilib, yurtimizda 56 megavatt quvvatli 200 ta kichik va mikro GESlar qurish imkoniyati aniqlandi. Bu borada alohida dastur qabul qilindi. Uning doirasida Farg‘ona tumanining chekka hududlarida 2 ta kichik GES barpo etildi. Birinchisi, Shohimardon qishlog‘ida qurilgan 2,2 megavattli, ikkinchisi, Yuqori Vodil qishlog‘idagi 430 kilovattli stansiyalardir. Ular yaqin mahallalardagi aholini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta’minlaydi.

Davlatimiz rahbari ramziy tugmani bosib, bitgan korxonalar faoliyatini va yangi loyihalar qurilishini boshlab berdi.

So‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Qo‘qon universitetida yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-avgustdagi qarori asosida tashkil etilgan ushbu ta’lim maskani 6 ming 400 o‘ringa mo‘ljallangan. O‘quv binolari, 500 o‘rinli 2 ta talabalar turar joyi hamda axborot-kutubxona markazida yoshlar uchun barcha sharoit yaratilgan. Talabalarga 233 nafar professor-o‘qituvchi saboq bermoqda.

Bu yerda xorijiy universitetlar bilan samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, 80 ga yaqin xorijiy universitet bilan shartnomalar imzolangan. Universitet Turkiy tilli davlatlar universitetlari kengashi a’zosi. O‘tgan o‘quv yilida Kengashning ta’lim grantlari asosida 22 nafar o‘qituvchi Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘istonda malaka oshirib qaytdi. 15 nafar xorijlik o‘qituvchi esa Qo‘qon universitetida malaka oshirdi.

Hududda olti qavatli, ikki ming o‘ringa mo‘ljallangan yangi o‘quv binosi qurilmoqda. Bu yerda o‘quv xonalari, fan laboratoriyalari, tipografiya joylashadi. Shuningdek, ikki qavatli yoshlar IT akademiyasi barpo etilmoqda. Ularni shu yil sentyabrda foydalanishga topshirish rejalashtirilgan.

2022-yilda universitetning turizm fakulteti uchun ming o‘rinli yangi bino barpo etilgan.

Davlatimiz rahbari milliy uslubdagi ushbu majmuani ko‘zdan kechirdi. Xorijdan professorlarni taklif etib, dual ta’lim tizimini keng qo‘llash, turizm tashkilotlari buyurtmasi asosida talabalarni maqsadli tayyorlash zarurligi ta’kidlandi. Bu sohada yetuk nazariy va amaliy bilimlarga ega kadrlar ishlashini ta’minlaydi.

Shu yerda Farg‘ona turizm halqasini yaratishga oid konsepsiya taqdimot qilindi.

O‘tgan yili Farg‘onaga 430 ming xorijiy turist kelgan. Lekin viloyatning tarixi, so‘lim tabiatiga nisbatan qaralsa, bu kam.

Farg‘ona turizm halqasidan maqsad xorijiy va mahalliy turistlarning viloyatda qolish muddatini 3 kundan 7 kungacha uzaytirish, tashrif obyektlari sonini 2 barobar oshirishdir. Buning uchun Farg‘ona, Oltiariq, Quva, Uchko‘prik tumanlaridagi diqqatga sazovor joylar turizm yo‘nalishlariga kiritiladi. Umuman, halqada 577 ta maskan bo‘ladi, 50 dan ortiq savdo-xizmat turlari taqdim etiladi.

Prezidentimiz universitet yonidagi Tepaqo‘rg‘on arxeologiya yodgorligini ham ko‘zdan kechirdi.

Yodgorlik shahar yoshini aniqlagani hamda qadimgi o‘rda o‘rnida joylashgani bilan ahamiyatlidir. Ya’ni bu yer Qo‘qon shahrining eng qadimiy asosidir.

Xo‘qand milodiy era boshlarida nafaqat yirik shahar, balki kichik davlat poytaxti bo‘lgan. U haqda ko‘plab tarixiy manbalarda yozilgan. Qo‘rg‘on xarobaga aylangach, uzoq yillar davomida qabriston bo‘lgan. Bu yerda ko‘plab alloma, adib va mudarrislar dafn etilgan.

Ushbu yodgorlik 2019-yilda moddiy madaniy meros obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritilgan. 2022-yilda olib borilgan arxeologik qazuv ishlari natijasida yodgorlik arkining tuzilishi aniqlangan.

Davlatimiz rahbari mazkur arxeologik yodgorlikni rekonstruksiya va konservatsiya qilib, “ochiq osmon ostidagi muzey”ga aylantirish tashabbusini bildirdi.

— Ziyorat o‘zi xayrli ish. Lekin millat tarixini ziyorat qilish yanada ulug‘ ne’mat. Bu yerda ana shunday sharoit yaratish kerak. Bu odamlarga, ayniqsa, yoshlarimizga ham bilim, ham g‘urur beradi. Qo‘rg‘on haqida chet ellardagi manbalarni o‘rganib, ma’lumotlarni boyitib borish ham zarur, — dedi Prezident.

Davlatimiz rahbari Bag‘dod tumanidagi Yuksalish mahallasida bo‘lib, aholi turmush sharoiti bilan tanishdi.

Hunarmandchilik, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan bu mahallada 3 ming 300 nafarga yaqin aholi yashaydi. 560 dan ortiq xonadonning barchasida tomorqa, o‘ndan ortiq issiqxona bor. Ulardan omilkorlik bilan foydalanib, ikki martalab hosil olinmoqda.

Yana ba’zi oilalar yog‘och o‘ymakorligi, temirchilik, kashtachilik bilan shug‘ullanadi. Bugungi kunda mahallada tadbirkorlik subyektlari soni yigirmatadan oshdi. Maktab, bog‘cha va poliklinika bor. Ularda hudud aholisining bir qismi doimiy ish bilan band.

O‘tgan yili 131 kishi ishga joylashtirilgan. Aholini tadbirkorlikka jalb qilish uchun 22 ta loyihaga 240 million so‘m kredit ajratilgan.

Davlatimiz rahbari mahalladagi “Gulnora Matqulobod bodomlari” korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

Bag‘dodda bodom yaxshi o‘sadi. Korxona 11 ta mahalladagi 500 dan ortiq xonadonlarga bodom tarqatib, sotuvga tayyorlatadi. Bir kunda 3 tonnagacha mahsulot qayta ishlanadi. Hozirda po‘sti yumshatilgan mazali bodomlar poytaxtimiz va viloyatlarga yetkazib berilmoqda. Tadbirkor ayol endi uni eksport qilishni rejalashtirayotganini aytdi.

Prezidentimiz tadbirkor va kasanachi ayollar bilan samimiy suhbatlashdi. Tashabbuskorligi va mehnatsevarligi, islohotlarga kamarbasta bo‘lib, xotin-qizlarni ishli qilayotgani uchun ularga minnatdorlik bildirdi.

Mahalla byudjetida 83 million so‘m bor. Ko‘chalar obod, xonadonlar saranjom-sarishta. Mahalla markazida huquq-tartibot idorasi, chiqindi yig‘ish punkti barpo etilgan.

Shu yil 25-iyun kuni davlatimiz rahbari huzurida o‘tgan yig‘ilishda mahallalarda servis kompaniyasi tashkil qilish choralari belgilangan edi. Shu asosida bu yerda ham “Yuksalish” mahalla-servis kompaniyasi tashkil etildi.

Servis kompaniyasi Bag‘dod tumanidagi 5 ta mahallaga xizmat ko‘rsatadi. 24 soatlik ish yo‘lga qo‘yilgan. 22 nafar ishchi, o‘nga yaqin yuk tashish va maxsus transportlar, ta’mirlash anjomlari el xizmatida.

To‘lovlarni undirishda “Mening uyim” elektron dasturidan foydalaniladi. Uning idorasi hovlisida hunarmandlar uchun ham sharoit yaratilgan.

Bu tajribani kengaytirib, mahallalarni obod qilish, bandlik va ozodalikka alohida e’tibor qaratish muhimligi ta’kidlandi.

Farg‘ona viloyatining Marg‘ilon shahrida aholi zich yashaydi. Yaqin kelajakda bu nufus oshib boradi. Yosh oilalarga va kelgusi avlodlarga munosib sharoit yaratish maqsadida Prezidentimiz shaharda yangi massiv qurish g‘oyasini ilgari surdi. Tashrif chog‘ida bu borada marg‘ilonlik nuroniylar, jamoatchilik vakillari bilan maslahatlashildi.

— Mamlakatimizning ko‘p joylarida yangi massivlar, shaharchalar quryapmiz. Marg‘ilonliklarning yashash sharoitlaridan, uy-joylarga ehtiyojidan xabarim bor. Shu talab va istaklarni, ko‘pchilik oilalarning orzularini inobatga olib, zamonaviy imoratlar qurishni o‘ylayapmiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Loyihaga ko‘ra, 110 gektar maydonda bunyodkorlik ishlari olib boriladi. Xususan, 25 ming aholiga mo‘ljallangan 5 mingta xonadonli ko‘p qavatli uylar quriladi. Shuningdek, Burhoniddin Marg‘inoniy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Maqom teatri, yuridik institut, 4 ta mehmonxona, shoir va san’atkorlar xiyoboni, savdo va xizmat majmualari bo‘ladi. Istirohat bog‘i unga fayz va havo bag‘ishlaydi.

Jamoatchilik nomidan so‘z olgan nuroniylar bu xalq kutgan loyiha ekanini aytib, mamnunligini bildirdi. Ushbu ezgu ishga muvaffaqiyat tilab duo qilindi.

— Bugun borib ko‘rdik, Farg‘onada katta sanoat korxonalari ishlayapti. Yangi elektr stansiyalarini ishga tushirdik. Nima uchun? Xalqimizning sharoiti bo‘lishi uchun, korxonalar barqaror ishlashi uchun. Endi sizlar ham islohotlarga kamarbasta bo‘lib, mahallalar ishsizlik va kambag‘allikdan xoli bo‘lishiga ko‘mak berishingizni istardim, — dedi Prezident.

Mutasaddilarga massivni xorij tajribasi asosida puxta loyihalashtirish, uylar va infratuzilmani uzoqni ko‘zlab barpo etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Farg‘onaga tashrifi chog‘ida Lola Murotova nomidagi qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan kasb-hunar maktabi ochildi.

Lola Murotova O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan qishloq xo‘jaligi xodimi, “El-yurt hurmati” va “Fidokorona xizmatlari uchun” ordenlari sohibasi bo‘lgan. Butun umrini shu sohaga bag‘ishlab, katta muvaffaqiyat va hurmat qozongan.

Bu boy tajribani yoshlarga yetkazish, qishloq xo‘jaligida o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlash maqsadida ushbu ta’lim dargohi tashkil etildi.

Davlatimiz rahbari bu yerda yaratilgan sharoitlarni ko‘zdan kechirdi.

Kasb-hunar maktabi 480 o‘ringa mo‘ljallangan bo‘lib, unda boshlang‘ich professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlanadi. O‘ttizdan ortiq auditoriyalar, yettita laboratoriya, kompyuter xonalari, faollar zali va muzey barpo etilgan. Shuningdek, 150 o‘rinli turar joy, sport zali, mini futbol maydonchasi, ustaxona, issiqxona va mashg‘ulotlar uchun avtodrom o‘quvchilar ixtiyorida bo‘ladi.

Muassasaga umumta’lim maktablarining 9-sinfini bitirganlar o‘qishga qabul qilinadi. O‘quv jarayoni boshlang‘ich professional ta’lim dasturlari asosida, amaliyot bilan bog‘liq holda olib boriladi.

Shavkat Mirziyoyev Lola Murotovaning ko‘p yillik mehnati, insoniy fazilatlarini yodga oldi.

— Lola opa o‘zbek ayolining nimalarga qodirligini ko‘rsatdi, shu bilan birga, juda kamtar va soddadil edi. Fidokorligi, mehnatsevarligi bilan yurtimiz rivoji va obodligiga katta hissa qo‘shgan edi. Bu jihatlar yoshlarga o‘rnak bo‘lishi, ular kasbni yaxshi o‘rganishi kerak, — dedi davlatimiz rahbari.

Maktabda Germaniya tajribasi asosida o‘quvchilarni qishloq xo‘jaligi sohasida tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish joriy etiladi. Ta’lim jarayonini sifatli tashkil etish, metodik yordam ko‘rsatish uchun maktab Farg‘ona davlat universitetiga biriktirildi. Shuningdek, muassasada “Fermerlar maktabi”ni ham tashkil etish ko‘zda tutilgan. Unda buyurtmachilar mablag‘lari hisobidan fermerlar malaka oshirish kurslari yo‘lga qo‘yiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Farg‘ona shahrida qurilayotgan “Yangi O‘zbekiston” massivini ham borib ko‘rdi.

Aholiga munosib yashash sharoitlari yaratish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish davlatimiz rahbarining doimiy e’tiborida. Shu bois, barcha hududlarda bunday loyihalar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz 2022-yil va o‘tgan yilda Farg‘ona shahridagi ushbu massiv qurilishini ko‘zdan kechirgan edi. 300 gektarli hududda 65 ming aholiga mo‘ljallangan 365 ta ko‘p qavatli uy bosqichma-bosqich bunyod etilmoqda. Bu uylar 7, 9, 12, 16 va 25 qavatli bo‘lib, viloyat shaharsozligida o‘ziga xos yangilik sanaladi.

Hozirgi kunda ilk uylar va bog‘lar obod aholi manziliga aylanib ulgurdi. 2 ming 887 xonadonli 75 ta uy foydalanishga topshirildi. Ularning negizida Nurafshon mahallasi tashkil etildi. Uylarga 500 dan ortiq oila ko‘chib keldi. Ikkita maktab, uchta bog‘cha va poliklinika ochildi.

Hovlidagi o‘yin maydonchalaridagi bolalarning shodon qiyqirig‘i ko‘ngillarni shod qiladi. Joriy yil yana 25 ta uy bunyod etiladi.

Aholi ancha zich yashaydigan hududlar uchun bunday massivlar muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. Uy-joylarning sifat va tannarxi xalqimiz imkoniyatiga mos bo‘lishi kerakligiga e’tibor qaratilmoqda.

Bu yerda zamonaviy ta’lim dargohlari, tibbiyot muassasalari, sport majmuasi, savdo va maishiy xizmat shoxobchalari qad ko‘tarmoqda.

Aholini ish bilan ta’minlash uchun massiv hududining 50 gektarida kichik sanoat zonasi tashkil etiladi. Oziq-ovqat, tikuvchilik, to‘qimachilik, charm-poyabzal, farmatsevtika, mebelsozlik va elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalar ish boshlaydi. Bugunga qadar 423 milliard so‘mlik 5 ta loyiha joylashtirildi. Ularning natijasida 700 ta yangi ish o‘rni yaratiladi.

Massivni ekoshahar deyish mumkin. Sababi 70 gektar maydonda “Yangi O‘zbekiston bog‘i”, so‘lim xiyobonlar, sun’iy ko‘l, to‘rt ming o‘rinli amfiteatr barpo qilindi. Bog‘ hududiga buta va manzarali daraxtlar ekilgan. Turli attraksionlar o‘rnatilgan.

Davlatimiz rahbari massiv bo‘ylab yurib, so‘lim maskanni ko‘zdan kechirdi. Bog‘da qurilgan amfiteatrda qisqa konsert dasturi namoyish etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Farg‘ona viloyatiga tashrifi davom etmoqda.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
Ma’sudjon SULAYMONOV,
O‘zA muxbirlari

Taraqqiyot odimlari

ARALASH SAYLOV TIZIMI

XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUV

Qodir JO‘RAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo‘mitasi raisi o‘rinbosari

Boshlanishi 1-betda

Majoritar saylov tizimining yana bir kamchiligi birinchi turda ko‘rsatilgan nomzodlarning hech biri saylanmasligi ehtimoli mavjudligidadir. Bunda takroriy ovoz berish va uni moliyaviy ta’minlash zarurati paydo bo‘ladi. Moliyaviy ta’minot masalasi, shuningdek, vakillik organidagi bo‘shab qolgan deputatlik o‘rnini to‘ldirishda ham yuzaga keladi. Bu degani, davlat byudjetidan saylov xarajati uchun har besh yilda bir marta emas, balki muntazam mablag‘ sarflanishi taqozo etiladi.

Shu kabi ayrim kamchiliklar proporsional saylov tizimida ham uchrab turadi. Jumladan, hech bir partiya saylovchilarning mutlaq ko‘pchilik ovozini to‘play olmasa, hukumatni shakllantirish uchun boshqa siyosiy partiyalar bilan koalitsiya tuzishga majbur bo‘ladi. Bu esa tuzilajak parlament ko‘pchiligi va hukumatning barqaror faoliyat yuritishiga ma’lum darajada to‘sqinlik qilishi mumkin.

Aralash saylov tizimi esa majoritar va proporsional saylov tizimlaridagi ushbu kamchiliklarni bartaraf etish bilan birga afzal jihatlarini o‘zida namoyon etadi. Bunda parlament deputatlari bir qismi partiyalarning nomzodlar ro‘yxatiga ovoz berish orqali saylansa, qolgan qismi majoritar tartibda alohida nomzodlarga ovoz berish yo‘li bilan saylanadi. Aralash tizim saylovchilarning ovozini to‘liqroq hisobga olishga hissa qo‘shadi va mamlakatdagi siyosiy vaziyatning haqiqiy manzarasini aniqroq aks ettiradi.

Bugun aralash saylov tizimi dunyoda tobora ommalashib borayotganini kuzatish mumkin. Mutaxassislar fikricha, keyingi yillarda majoritar va proporsional saylov tizimlarining eng yaxshi jihatlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish uchun Markaziy va Sharqiy Yevropadagi qator davlatlarda aralash saylov tizimini joriy qilish tendensiyasi kuchaymoqda.

Aralash saylov tizimi hozir Germaniya, Ispaniya, Yaponiya, Vengriya, Avstraliya, Yangi

Zelandiya, Gvineya, Albaniya, Janubiy Koreya, Litva, Somali, Meksika, MDH doirasida esa Rossiya, Armaniston, Qozog‘iston, Ozarbayjon, Gruziya kabi jami 40 ga yaqin davlatda amal qilmoqda.

Masalan, Avstraliyada parlamentning bir palatasi majoritar, ikkinchisi proporsional tizim asosida saylanadi. Misrda esa aralash tizim partiyaviy ro‘yxat bo‘yicha ovoz berish va yakka tartibdagi saylovlar kombinatsiyasidan iborat: har bir saylov okrugida bittadan individual nomzod saylanadi, qolgan o‘rinlar esa partiya ro‘yxatidagilar o‘rtasida taqsimlanadi. Meksikada Federal kongressning deputatlar palatasi majoritar tizim asosida saylanadigan 300 hamda proporsional vakillik tizimi asosida saylanadigan 100 deputatdan iborat.

Parlament mandatlarining shakllanishidagi o‘zaro taqsimot ham xorijiy davlatlarda turlicha bo‘lishi mumkin. Misol uchun, Qozog‘istonda parlament quyi palatasi deputatlarining 70 foizi proporsional tartibda, qolgan 30 foizi majoritar tizim asosida saylanadi. Germaniyada esa deputatlarning 81 foizi proporsional tartibda, qolgan 19 foizi majoritar tizim asosida saylanadi.

Aralash saylov tizimida saylovdan oldin har bir partiya o‘z potensial nomzodlari ro‘yxatini tuzadi va bu ro‘yxatga kirgan nomzod bir mandatli saylov okrugida o‘tkaziladigan saylovda ham qatnashishi mumkin. Buning uchun nomzodning ko‘p mandatli saylov okrugiga ham, bir mandatli saylov okrugiga ham aynan bir saylov birlashmasidan yoki saylov blokidan ko‘rsatilishi shart qilib qo‘yiladi.

Aralash saylov tizimida, eng avvalo, saylovchilar ovozini maksimal inobatga olish ta’minlanadi. Majoritar saylov tizimi asosida muvaffaqiyat qozonolmagan partiyalarga o‘zi to‘plagan ovozga mutanosib ravishda deputatlik o‘rinlari olishga imkoniyat yaratadi. Bu jamiyatda haqiqiy ko‘ppartiyaviylik tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur tizimda bo‘shab qolgan deputatlik o‘rinlari saylovlarda taqdim etilgan siyosiy partiyalar ro‘yxatidagi nomzodlar hisobidan to‘ldiriladi. Bu esa saylovlarni o‘tkazish bilan bog‘liq davlat byudjeti xarajatini qisqartirishga xizmat qiladi.

Aralash tizimning qo‘llanishi ikki guruhdagi deputatlarning saylanishiga olib keladi. Birinchisi muayyan saylov okrugida o‘z saylovchilari bilan uzviy bog‘langan deputat bo‘lib, saylovchilar oldida mas’uliyatini to‘liq his etadi. Ikkinchisi esa partiyaviy ro‘yxat asosida saylangan deputat bo‘lib, muayyan okrug saylovchilariga uncha tanish bo‘lmasligi mumkin. Zero, saylovchi ovoz berish paytida aynan unga emas, balki partiya ro‘yxati uchun ovoz bergan bo‘ladi. Natijada saylangan deputat o‘zini muayyan saylov okrugi saylovchilari emas, balki uni ro‘yxatga kiritgan partiya oldida hisobdor sezadi.

Mamlakatimizda ham aralash saylov tizimiga o‘tishning huquqiy asoslari yaratildi. Jumladan, 2023-yilda qabul qilingan yangi qonunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi va amaldagi qonunlarga aralash saylov tizimiga o‘tishni ko‘zda tutuvchi muhim o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Biroq aralash saylov tizimini hayotga tatbiq qilish jarayoni endi boshlanmoqda. Xususan, joriy yil oktyabrida bo‘lib o‘tadigan parlament saylovlari ilk marta aralash saylov tizimi asosida tashkil qilinadi. Bu jarayonda Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi deputatlik o‘rinlarining 50 foizi majoritar tizim asosida, qolgan 50 foizi esa proporsional, ya’ni partiyaga ovoz berish orqali saylanishi nazarda tutilmoqda.

Demak, shu yil kuzda bo‘lib o‘tadigan saylovlarda Qonunchilik palatasining 75 deputatini saylash uchun mamlakatimizda yetmish beshta hududiy bir mandatli saylov okrugi, partiya ro‘yxati asosida boshqa 75 deputatni saylash uchun esa O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yagona saylov okrugi tashkil qilinadi.

Partiya ro‘yxati asosida saylangan deputatlar muayyan saylov okrugiga ega bo‘lmaydi. Bunday deputatlar va saylovchilar o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantirish uchun mas’uliyat siyosiy partiyalar fraksiyasi zimmasida bo‘ladi. Shunga muvofiq, amaldagi qonunlarga tegishli qo‘shimchalar kiritilib, partiya ro‘yxati asosida saylanadigan deputatlarning saylovchilar bilan aloqasi tegishincha siyosiy partiya fraksiyasi tomonidan belgilanishi mustahkamlab qo‘yildi.

Shunday qilib, aralash saylov tizimi jamiyatda mavjud barcha siyosiy kuchlar ishtiroki va muvozanatini aks ettiruvchi professional parlamentni shakllantirish imkonini beradi. Bu jarayonda qonun ijodkorligi faoliyatining sifati va samaradorligi ham oshadi. Zero, aralash tizim asosida saylangan deputatlar korpusi amaldagi qonunchilikni takomillashtirishga ancha faol tayyorgarlik ko‘rgani bois, qonun loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish bo‘yicha talablar ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

Aralash saylovlarda deputatlarning bir qismi proporsional asosda saylangani tufayli siyosiy partiyalar bilan aloqasi ancha mustahkamlanadi. O‘z navbatida, siyosiy partiyalarning o‘rni va nufuzi ham oshadi. Ularning saylovoldi dasturlari va siyosiy faoliyatida aholining turli guruh va qatlamlari manfaatlari hamda jamoatchilik fikrini hisobga olish tendensiyasi kuchayadi.

Eng muhimi, aralash saylov tizimi siyosiy jarayonlar uzviyligi va an’analar bardavomligini ta’minlaydi. Bu esa, o‘z navbatida, siyosiy institutlarning bir maromda, barqaror faoliyat yuritishiga, tizimda demokratik tamoyillar va qadriyatlarning ustuvorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi

MILLAT SAODATI

FAQAT VA FAQAT YOSHLAR TA’LIM-TARBIYASIGA BOG‘LIQ

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Donolarimiz topib aytganidek, kasalni davolagandan ko‘ra oldini olgan ming marta yaxshi. Shu bois, yuqorida aytib o‘tganimizdek, keyingi paytlarda mamlakatimizda ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayni paytda ta’limning sifat ko‘rsatkichlarini yanada yaxshilash yo‘lida samarali choralar ko‘rilyapti. Sohaga zamonaviy o‘quv metodlari yutuqlari va innovatsion ishlanmalar keng jalb qilinib, yoshlarimizga har tomonlama sifatli ta’lim-tarbiya berishning yangidan yangi yo‘nalishlari amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Boshlanishi 1-betda

Shu bois, mamlakatimizda ta’lim tizimini zamon talablariga mos isloh qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu mavzuga atroflicha to‘xtalishdan avval Prezidentimiz nafaqat yurtimizda ta’lim tizimini rivojlantirish, balki mintaqa va global doiradagi nufuzli xalqaro tadbirlarda ham bu borada muhim tashabbuslarni ilgari surib kelayotganini alohida ta’kidlash o‘rinli.

Masalan, Markaziy Osiyo yoshlar forumini o‘tkazish tashabbusi mintaqada yoshlarga doir siyosatning umumiy yo‘nalishlarini ishlab chiqish, zarur imkoniyatlar yaratishga zamin hozirlamoqda. Shuningdek, Yoshlarga doir siyosatning umumiy yo‘nalishlari to‘g‘risida ko‘p tomonlama bitimni tayyorlash tashabbusi va ushbu yo‘nalishdagi 10 ga yaqin boshqa tashabbusning amalga oshishi yoshlar siyosati birlamchi va ustuvor mintaqaviy masala sifatida o‘rnatilishiga xizmat qildi.

Yaqin kunlarda bo‘lib o‘tgan ikki muhim xalqaro tadbir — Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisi va Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammitida ham davlatimiz rahbari dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy masalalar qatorida yoshlar ta’limiga e’tibor qaratdi. Jumladan, “Biz zamonaviy “bilimlar iqtisodiyoti”ni qurish, kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalar, blokcheyn, bulutli, kvant hisoblash texnologiyalari, robototexnika, “to‘rtinchi sanoat” kadrlarini tayyorlash sohalarida hamkorlikni kuchaytirishdan manfaatdormiz. Buning uchun Turkiy davlatlar tashkilotining Inson kapitalini rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish bo‘yicha tashabbusni ilgari suramiz va uni yurtimizda joylashtirishga tayyormiz.

Tashkilot shafeligida aniq fanlar bo‘yicha Yoshlar turkiy olimpiadasi va Butunjahon turkshunoslar kongressini tashkil etishni hamda ularni kelgusi yili O‘zbekistonda o‘tkazishni taklif etamiz”, dedi.

SHHT sammitida madaniyat, ta’lim, yoshlar va sayyohlik almashinuvlari sohasidagi dasturlarni birgalikda bajarish orqali tashkilotni yanada bunyodkor tuzilmaga aylantirish, shu maqsadda mazkur yo‘nalishlardagi loyihalarni tizimlashtirish va barcha manfaatdor tomonlarni jalb etgan holda birgalikda amalga oshirishga xizmat qiladigan SHHT gumanitar tashabbus va dasturlari yagona bankini ishlab chiqish taklif etildi.

Xo‘sh, bular qaysi jihatlari bilan muhim? Avvalo, yoshlar masalasi hamma zamonda dolzarb bo‘lib kelgan. Inchunin, biz yashayotgan XXI asrda bu masala, haqiqatan, hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. E’tibor bering, keyingi paytlarda yaqinlarimiz, hamkasblarimiz bilan gaplashganimizda negadir gap aylanib farzandlarimiz tarbiyasiga borib taqalaveradi. Kimdir farzandining smartfonu kompyuterdan ko‘z uzolmay, mukkasidan ketganidan nolisa, yana kimdir bugungi yoshlar tarbiyasida ro‘y berayotgan salbiy holatlardan kuyinadi. Ko‘pchilik bunda o‘zini bosh aybdor sifatida ko‘rib, sababni o‘zidan qidirsa, boshqalar bunga jamiyatni ayblaydi.

Suhbatlarimizda gap, asosan, bugun internet tarmoqlari orqali tarqatilayotgan xabarlarning barchasi ham insoniyat uchun ma’lum ma’noda kerakli yoki jamiyat hayoti uchun foydali emasligi haqida ketadi.

Afsuski, tarmoqlarda xiyonat, fahsh, jaholat haqidagi, hatto mazmunini tilga ham olib bo‘lmaydigan turli shov-shuvli xabarlar, ma’naviyatimizga butkul yot ma’lumotlar nisbatan ko‘p tarqalyapti. Yanada achinarlisi, ularni barcha, shu jumladan, hali oq-qoraning farqiga bormaydigan farzandlarimiz ham ko‘ryapti. Ularda “shunday qilish mumkin ekan” degan tushuncha shakllanyapti va asta-sekin azaliy qadriyatlarimizdan uzoqlashib bormoqda.

Ha, bugun ham oramizda ko‘chadan beri kelmay, biror ishning, kasbning boshini tutmagan, o‘z hayot yo‘lini topish, kelajagini mustahkamlash o‘rniga befoyda ishlarga vaqtini sovurayotgan yoshlar uchrayotgani achinarli. Bugun kichik va arzimas bo‘lib ko‘ringan bu kabi holatlar yig‘ilib, ertaga jamiyat uchun yaxshigina muammo yaratishi mumkin.

Donolarimiz topib aytganidek, kasalni davolagandan ko‘ra oldini olgan ming marta yaxshi. Shu bois, yuqorida aytib o‘tganimizdek, keyingi paytlarda mamlakatimizda ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayni paytda ta’limning sifat ko‘rsatkichlarini yanada yaxshilash yo‘lida samarali choralar ko‘rilyapti. Sohaga zamonaviy o‘quv metodlari yutuqlari va innovatsion ishlanmalar keng jalb qilinib, yoshlarimizga har tomonlama sifatli ta’lim-tarbiya berishning yangidan yangi yo‘nalishlari amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Ayni paytda mamlakatimizda 10 ming 300 ga yaqin maktab mavjud. Keyingi yillarda ulardagi sharoitni yanada yaxshilash, o‘quvchi o‘rnini ko‘paytirish bo‘yicha tizimli ishlar qilindi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining birinchi bo‘limida har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlar yaratish haqida so‘z yuritiladi. Katta strategik ahamiyatga ega hujjatning birinchi bo‘limi aynan ta’lim tizimi islohotlariga qaratilganidan ham bilish mumkinki, yangi O‘zbekiston sharoitida sifatli ta’lim masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan.

Har bir insonga salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlar yaratish maqsadi umumiy o‘rta ta’lim tizimida “Ta’lim uchun qulay muhit” dasturini amalga oshirish doirasida olis va chekka hududlarda joylashgan maktab o‘quvchilari uchun bepul avtobuslar qatnovini yo‘lga qo‘yish, maktablarni toza ichimlik suv va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi, yangi darsliklar, mashq daftarlari bilan ta’minlash, pedagoglar uchun metodik qo‘llanma va mobil ilovalar, multimedia dasturlari yaratish, kasb-hunarga o‘rgatish kurslarini ochish hamda xorijiy tillarni o‘rganish masalalarini o‘z ichiga olgan.

Umuman, sohani isloh qilish borasidagi ishlar haqida uzoq gapirish shart emas. Chunki ularning natijasini barcha ko‘rib, bilib turibdi. Masalan, bugun berilayotgan imkoniyat va imtiyozlardan samarali foydalanib, yuksak cho‘qqilarni zabt etayotgan yoshlarimiz soni kundan kunga oshmoqda. Ayniqsa, keyingi paytlarda yoshlar orasida xorijiy tillarni o‘rganishga qiziqish ortib boryapti. Bundan bir necha yil avval xorijda o‘qish ushalmas orzu bo‘lib tuyulardi. Mamlakatimizdagi izchil islohotlar tufayli chet elda ta’lim olayotgan va

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining birinchi bo‘limida har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlar yaratish haqida so‘z yuritiladi. Katta strategik ahamiyatga ega hujjatning birinchi bo‘limi aynan ta’lim tizimi islohotlariga qaratilganidan ham bilish mumkinki, yangi O‘zbekiston sharoitida sifatli ta’lim masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan.

faoliyat yuritayotgan yigit-qizlar safi yildan yilga kengaymoqda.

Ayniqsa, dunyoning eng nufuzli oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan, “Google”, “Tesla”, “WallMart” kabi korporatsiyalarda, yirik bank-moliya muassasalari va tashkilotlarda muvaffaqiyatli ishlayotgan o‘zbekistonlik yoshlar ko‘payayotgani barchamizni xursand qiladi.

Ushbu yutuqlar zamirida katta mehnat va til bilish ko‘nikmalari yotibdi. Donolarimiz til bilgan el biladi, deb bejiz aytmagan. Shu sababli mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, 2023/2024-o‘quv yilida umumta’lim maktablariga 500 nafardan ortiq xorijlik chet tili pedagog-mutaxassisi jalb qilindi. Joriy yildan boshlab Toshkent shahri va hududlardan tanlab olingan 500 dan ortiq ta’lim muassasasida 2 ta chet tilini o‘qitish boshlandi.

Xalqaro til bilish darajasi sertifikatini olish uchun imtihonda yuqori ball to‘plagan yoshlarning o‘qish xarajati davlat tomonidan to‘liq qoplanyapti. Birgina 2023-yilda 12 ming 400 ga yaqin yoshga 21,7 milliard so‘mga yaqin mablag‘ to‘lab berildi. Yoshlar ishlari agentligi tomonidan yigirmadan ortiq xorijiy tilni onlayn tarzda bepul va kreativ o‘rgatish uchun “Ibrat farzandlari” loyihasi ishga tushirildi.

Yurtimizda yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dunyoda o‘xshashi kam bo‘lgan vertikal boshqaruv tizimi yaratildi. Bu esa mahallalardagi yoshlar yetakchilari orqali yigit-qizlarni kasb-hunarga o‘qitish, bandligini ta’minlash, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq ko‘plab masalalarni quyi bo‘g‘inning o‘zida hal etish imkonini bermoqda.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida bilimni baholashning yangi tartibini joriy etish hamda ikkinchi xorijiy til va kasbni o‘rgatishni kengaytirish borasida bir qator vazifalar belgilangan.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 27-iyundagi “Yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori yosh avlodni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan navbatdagi muhim hujjat bo‘ldi. Qaror bilan Yoshlar ishlari agentligi zimmasiga qo‘shimcha funksiyalar yuklatildi. Endi agentlik yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish jarayonini takomillashtirishga ko‘maklashib, chet tillarni mukammal o‘zlashtirish uchun sharoitlarni kengaytiradi.

Shuningdek, xorijiy tillarni o‘qitish bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar, xususiy o‘quv markazlari faoliyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash, sohadagi muammolar yechimini topish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi. Xususiy o‘quv markazlari reytingini shakllantiradi hamda yuqori o‘rinni egallaganlarini rag‘batlantirib boradi. Yoshlar orasida kasb-hunar va xorijiy tillarni o‘rganishni targ‘ib qiladi hamda ushbu yo‘nalishdagi ijtimoiy loyihalar, ko‘rik-tanlov va olimpiadalarni tashkil etadi.

— Endi imtihon topshirish xarajati qoplanadigan xalqaro imtihon tizimlari bo‘yicha kamida S1 yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi sertifikat olgan yoshlarning imtihon topshirish xarajatini kompensatsiya qilishga qo‘shimcha ravishda o‘qish xarajatini qoplash uchun BHMning 3 barobari miqdorida bir martalik moddiy rag‘batlantirish tizimi joriy etiladi, — deydi Yoshlar ishlari agentligi bosh mutaxassisi Elmurod Jabborov. — Ushbu amaliyot ingliz, nemis, fransuz, koreys, xitoy va yapon tillari bo‘yicha qo‘llanadi.

Qaror bilan 2024-yil 1-sentabrdan 2027-yil 1-yanvargacha yoshlarning nemis, fransuz, koreys, xitoy va yapon tillari bo‘yicha xalqaro imtihon tizimlarida imtihon topshirish xarajati qoplab berilishi uchun ular tomonidan to‘planishi lozim bo‘lgan balning minimal ko‘rsatkichi bir pog‘ona pasaytiriladi.

Shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining sinfxonalarini ta’lim jarayonidan bo‘sh vaqtda kasb-hunar va xorijiy tillarni o‘qitish uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar asosida tekin foydalanish huquqi bilan xususiy o‘quv markazlariga berishga ruxsat etiladi. Xususan, 2024-yilda kamida mingta umumiy o‘rta ta’lim muassasasining sinfxonasi xususiy o‘quv markazlariga tekin foydalanishga beriladi. Kurslarda ushbu maktablarda ta’lim olayotgan, “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kiritilgan oilalar farzandlari bo‘lgan yuqori sinf o‘quvchilari bepul o‘qitiladi.

2024-yil 1-oktabrdan boshlab agentlik har yili xususiy o‘quv markazlarining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha reytingini tuzadi hamda rasmiy veb-saytida e’lon qilib boradi.

Reyting natijalariga ko‘ra, olis va chekka hududlarda faoliyat yurituvchi eng yuqori ko‘rsatkichga ega 100 ta xususiy o‘quv markazining ta’lim jarayonida foydalanadigan bino va inshootlar uchun ijara to‘lovi xarajatining bir qismi Yoshlarga oid davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan kompensatsiya qilinadi.

— Maktabgacha va maktab ta’limi hamda oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlash maqsadida 2024-2026-yillarda OTMning xorijiy til filologiyasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 3- va 4-kursda tahsil olayotgan hamda kamida S1 darajadagi sertifikatga ega talabalarining umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlarida o‘qituvchi sifatida ishlashiga ruxsat etiladi, — deydi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari Shahlo Temirova. — Shuningdek, 2024/2025-o‘quv yilidan boshlab xorijiy tillarga ixtisoslashgan umumta’lim muassasalarida asosiy xorijiy til sifatida nemis, fransuz, koreys, xitoy va yapon tillari o‘qitiladi.

2025-yil 1-dekabrgacha nemis, fransuz, koreys, xitoy va yapon tillarini bilish darajasini baholovchi nufuzli xorijiy tashkilotlarning mamlakatimizda, birinchi navbatda, hududlarda qo‘shimcha 5 ta filiali ochiladi. Joriy yil yakuniga qadar ingliz, nemis, fransuz, ispan, koreys, xitoy va yapon tillarini B2 darajasida biladigan yoshlar soni 100 ming nafarga yetkaziladi.

— Ayni paytda “Ibrat farzandlari” loyihasi doirasida 1 million 300 mingga yaqin yigit-qiz xorijiy tillarga onlayn shaklda bepul o‘qitilyapti, — deydi loyiha rahbari Rustam Qoriyev. — Mazkur qaror biz uchun yanada katta imkoniyatlar eshigini ochdi. Xususan, 2025-yil 1-yanvargacha ingliz tili, keyingi yillarda boshqa xorijiy tillar va zamonaviy kasblarni o‘rgatish bo‘yicha dunyoning yetakchi markazlari, oliy ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, ularning xalqaro ta’lim standartlariga mos ta’lim dasturlari “Ibrat farzandlari” va “Ustoz” loyihalariga tatbiq etiladi. Endi mazkur qaror asosida eng chekka hududlarda “Ibrat farzandlari”ning o‘quv markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Hozir pilot loyihamizni Jizzax viloyatida amalga oshirishga kirishdik. Bu markazlarga bevosita o‘sha hududlarda eng yaxshi natijani qo‘lga kiritib kelayotgan pedagoglarni jalb etamiz va ularni Londondagi malaka oshirish kurslarida o‘qitishni rejalashtirganmiz.

Vazirlik va idoralar hamda davlat ishtirokidagi korxonalarda yosh tashabbuskor xodimlar yoshlar bilan ishlash uchun mas’ul etib belgilanadi. Ularning faoliyati Yoshlar ishlari agentligi tomonidan uslubiy va amaliy jihatdan muvofiqlashtirib boriladi. Shuningdek, bolalarni vatanga sadoqat, milliy, umuminsoniy qadriyatlar, ota-ona, oila va kattalarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda tabiatni asrab-avaylash tuyg‘ularini shakllantirishga qaratilgan asarlarni yaratish, chop etish va ommalashtirish choralari ko‘riladi.

Bugungi globallashuv davri insoniyatning zamon bilan hamnafas odimlashini talab etadi. Shu bois, turli soha mutaxassislari o‘z ona tilini mukammal bilish bilan bir qatorda bir nechta xorijiy tilda muloqot qila olishi ustunlik beradi.

Shunday ekan, mazkur qaror ilmli va ma’rifatli yoshlarni kamolga yetkazish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini oshirish, xorijiy tillarga o‘qitishni yanada ommalashtirish, shuningdek, bunday faoliyat bilan shug‘ullanuvchi markazlarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda har qachongidan ham ko‘proq yaratilayotgan munosib mehnat imkoniyatlari inklyuzivlik, ijtimoiy adolat, barqarorlik va tinchlik kalitidir.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 12-iyul, 139-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

HECH KIM E’TIBORDAN CHETDA QOLMAYDI

Inson qadri uchun

Salohiddin SAMADOV,
Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg‘armasi ijrochi direktori

Aholi bandligini ta’minlash va doimiy daromadga ega bo‘lishini rag‘batlantirish mamlakatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan sanaladi. Zero, ehtiyojmand aholi, xususan, ijtimoiy yordamga muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash, himoya qilish jamiyat taraqqiyotining eng asosiy shartlaridan biridir. Yurtdoshlarimiz daromadini oshirish va xalqaro standartlarga javob berish uchun ijtimoiy himoya tizimini o‘rnatish strategik maqsadlarimizda ham ko‘rsatilgan.

Jumladan, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mamlakatda ish o‘rinlarini yaratish, aholi bandligini ta’minlash, daromadlarini oshirish va shu orqali kambag‘allikni qisqartirish vazifa sifatida belgilangani fikrimizga dalildir.

Hozirgi kunda tadbirkorlik qilish istagida bo‘lgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash uchun davlatimiz tomonidan qator imkoniyat va imtiyozlar yaratilgan. “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” tizimining yo‘lga qo‘yilganidan asosiy maqsad ham shu.

“Yoshlar daftari” 18 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarning ijtimoiy maqomini ko‘tarish, imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, mazkur toifadagi kishilarning jamiyat hayotiga integratsiyasi va ijtimoiylashuv jarayonini ta’minlash jamiyatda ular faolligini oshirishga qaratilgan davlat siyosatining zamonaviy innovatsion usulidir. Mazkur tizim barcha yoshlarni ijtimoiy, huquqiy, moddiy va ruhiy-psixologik qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. Manfaatlarini muhofaza qilish, ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratish, hududlarda o‘zini o‘zi band qilish faoliyatini keng yo‘lga qo‘yish, kasbiy malakalarini o‘stirish, muammolarini belgilash asosida qiyinchiliklarni bartaraf etish choralari Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan moliyalashtirib kelinmoqda.

“Ayollar daftari”ni yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tartibi joriy etilgan. Ijtimoiy yordam esa odamlar farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan vaziyatlarning oldini olish, boshqarish va bartaraf etish bilan bog‘liq. Kasb-hunarga o‘qitish markazlari va oliy o‘quv yurtlarida kasb-hunarga tayyorlash, agrotexnologiya, bog‘dorchilik, sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik hamda asalarichilik sohasida fermer va dehqon xo‘jaliklari rahbar va ishchilari, tomorqa yer egalarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirishni moliyalashtirish uchun grantlar ajratilgan.

Prezidentimizning 2023-yil 21-dekabrdagi “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, 13 ming 477 nafar xotin-qiz haq to‘lanadigan jamoat ishlari asosida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga ish yurituvchi sifatida jalb qilinib, ularning oylik ish haqiga 14,1 milliard so‘m moliyalashtirib berildi. Qarorga asosan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan ayollarni jamoat ishlariga jalb qilish orqali yashash sharoitlari yaxshilandi.

Ijaraga tikuv mashinalari olganlar ijara to‘lovlaridan ozod etilyapti. Toshkent shahar Sergeli tumanida faoliyat yuritayotgan 2-guruh nogironi, yakka tartibdagi tadbirkor U.Sultonovaga 2022-yilda 10 ta tikuv mashinasi imtiyozli ijaraga berilib, nogironligi bor 10 nafar xotin-qizning doimiy bandligi ta’minlangan. Bugungi kunda inventarlar tadbirkorning balansiga o‘tkazilgan.

Shuningdek, 2023-yilda O‘zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi murojaatiga ko‘ra, 17 ta buyurtma shakllantirilib, 2023-yilda pilot loyiha asosida imtiyozli foizsiz ijaraga berish tizimi orqali ishsiz nogiron shaxslarning bandligi ta’minlandi.

2021-2022-yillarda jamg‘arma tomonidan “Temir daftar”ga kiritilgan 782 nafar, “Ayollar daftari”ga kiritilgan 1817 nafar, “Yoshlar daftari” ga kiritilgan 1114, jami 3713 nafar ishsiz va band bo‘lmagan fuqarolarning bandligi ta’minlanib, 1795 oila kambag‘allikdan chiqarildi. Jamoat ishlarida qatnashgan ishsiz va band bo‘lmagan fuqarolarni maxsus kiyim bilan ta’minlash uchun umumiy qiymati 3,1 milliard so‘mlik maxsus kiyim xarid qilinib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahrining barcha tumanlariga yetkazib berildi.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-maydagi tegishli qaroriga ko‘ra, “mahalla yettiligi”ning asosiy vazifalari belgilandi.

“Biz faoliyatimizning birinchi kunlaridan hamma ishni mahallada, xalqimiz bilan birgalikda tashkil qilib kelyapmiz. Bu tizimni bosqichma-bosqich rivojlantirdik. Endi yana qo‘shimcha kuch, imkoniyatlar berilyapti. Bu ham vakolat, ham mas’uliyat, degani. Mahallalar — davlatimizning eng katta zamini”, deya ta’kidlagan edi davlatimiz rahbari.

Ana shu tamoyil asosida joriy yilning ikkinchi yarmida O‘zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida o‘zini o‘zi boshqarish organlarida hokim yordamchilarining taklif va tavsiyalari, “mahalla yettiligi” xulosasiga asosan, nogironligi bo‘lgan tadbirkorlar talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, imtiyozli foizsiz ijaraga berish tizimini yo‘lga qo‘yish rejalashtirildi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga ijara asosida berilgan vosita va texnika uskunalarining to‘lovlaridan 3,9 milliard so‘m ijara tushumlari tushirilishiga erishildi.

> **Joriy yilning 17-may kuni Xalqaro mehnat tashkiloti ekspertlari Maykl Lyu King Song, Marta Espeyro, Yeva Mayron va Jamoat ishlari jamg‘armasi mas’ullari ishtirokida “Davlat bandlik dasturlari va g‘amxo‘rlik iqtisodiyoti — O‘zbekiston tajribasi” mavzusida onlayn brifing o‘tkazildi. Tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash orqali yaratilgan doimiy ish o‘rinlari, nogironligi bor shaxslarga berilgan imtiyozlar haqida batafsil ma’lumotlar almashinuvi bo‘lib o‘tdi.**

Joriy yilning 1-2-may kunlari “O‘zekspomarkaz”da Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan tashkil qilingan “Inson uchun” nomli nogironligi bor shaxslar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning respublika savdo ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi.

10-may kuni Jamoat ishlari jamg‘armasida ko‘rgazma ishtirokchilari “Zilola orzulari plyus” MCHJ rahbari Yulduz Tog‘ayeva, “Ko‘zi ojizlar jamiyati EZGU NIYAT” MCHJ rahbari Nargiza To‘ychiyeva, “Shukriya textile” MCHJ rahbari Oloviddin Umarov bilan uchrashuv tashkil qilinib, ularning faoliyati yaqindan o‘rganildi. Vasiylik kengashining majlis bayoniga ko‘ra, ularga asosiy vosita va inventarlarni imtiyozli ijaraga berish taklif qilindi.

Mamlakatimizda tadbirkor qancha ko‘p bo‘lsa, fuqarolarning bandligi ta’minlanib, farovon oilalar soni oshadi. Xususan, O‘zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi tomonidan taqdim qilingan buyurtmalarga asosan Farg‘ona viloyati Marg‘ilon shahrida faoliyat yuritayotgan “Sayfulloh asl mato” unitar korxonasi rahbari, salohiyatli tadbirkor Gulzoda Bahodirxonovaga jamg‘arma mablag‘lari hisobidan 50 ta tikuv mashinasi imtiyozli ravishda ijaraga berildi. Natijada 55 ta ishchi o‘rni yaratildi. Ayni paytda 25 nafar ishsiz va band bo‘lmagan nogiron hamda nogiron farzandlari bor ayollarning doimiy ish bilan ta’minlanishiga erishildi.

Jamg‘arma xorijiy tadbirlarda faol ishtirok etib, o‘zaro hamkorlik shartnomalarini imzolamoqda. Shu yilning 21-22-fevral kunlari Turkiyada bo‘lib o‘tgan 27-Yevroosiyo iqtisodiy sammitida qator kelishuvlarga erishildi. Jumladan, texnik xizmat ko‘rsatish yo‘nalishida o‘zbekistonlik mutaxassislarni Turkiyada o‘qitish, malaka oshirish, tajriba almashishini yo‘lga qo‘yish, 2025-yilda O‘zbekistonda to‘quv dastgohlarini ishlab chiqarish zavodini qurish, yurtimizda ishlab chiqarilgan dastgohlarni Yevropa davlatlariga eksport qilish choralarini ko‘rish to‘g‘risida kelishib olindi.

Joriy yilning 17-may kuni Xalqaro mehnat tashkiloti ekspertlari Maykl Lyu King Song, Marta Espeyro, Yeva Mayron va Jamoat ishlari jamg‘armasi mas’ullari ishtirokida “Davlat bandlik dasturlari va g‘amxo‘rlik iqtisodiyoti — O‘zbekiston tajribasi” mavzusida onlayn brifing o‘tkazildi. Tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash orqali yaratilgan doimiy ish o‘rinlari, nogironligi bor shaxslarga berilgan imtiyozlar haqida batafsil ma’lumotlar almashinuvi bo‘lib o‘tdi.

Shu yilning 24-may kuni Jamoat ishlari jamg‘armasi ijro etuvchi direksiyasida Xalqaro mehnat tashkiloti eksperti Devid Todd bilan 2018-2024-yillarda “Xalqaro mehnat tashkilotida amalga oshirilgan ishlarni baholash” mavzusida davra suhbati o‘tkazildi. Davra suhbati XMTning 2018-2024-yillarda O‘zbekistonda olib borgan faoliyatiga bag‘ishlanib, unda tashkilot yondashuvi va faoliyati qanday o‘zgarganiga e’tibor qaratildi. Xalqaro mehnat tashkiloti vakili Devid Todd tomonidan Jamoat ishlari jamg‘armasi “Janub-janub”, “Better work” loyihalarida ishtirok etishi taklif qilindi. O‘zbekiston tajribasi yuqori darajada baholandi. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish, O‘zbekiston tajribasini xorijiy davlatlar, jumladan, MDH va Sharq davlatlariga tatbiq qilish, taklif va tavsiyalar almashish haqida kelishib olindi.

Bugungi kunda har qachongidan ham ko‘proq yaratilayotgan munosib mehnat imkoniyatlari inklyuzivlik, ijtimoiy adolat, barqarorlik va tinchlik kalitidir. Yurtimizdagi imtiyoz va imkoniyatlar sababli ishsiz va ijtimoiy yordamga muhtoj bo‘lgan fuqarolar qo‘llab-quvvatlanayotgani kelgusida o‘zining samarasini berishi shubhasiz.

YOSH TADBIRKORNING CHIROQCHI TUMANI HOKIMIGA AYTADIGAN SO‘ZLARI KO‘P

Ochiq gap

Bundan uch yil oldin, ya’ni 2021-yil 21-aprelda Prezidentimizning “Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori e’lon qilindi. Unda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslari, startap loyihalari va amaliy tadqiqotlarini ro‘yobga chiqarishiga ko‘maklashish, yosh tadbirkorlik subyektlarining sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi loyihalarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilab berilgan. Shu bilan birga, joylarda mazkur qaror ilovasida qayd etilgan manzillar bo‘yicha har bir shahar va tumandan bitta mahallada Yoshlar sanoat zonasi tashkil etish uchun ishlar boshlandi.

Jumladan, yuqoridagi qaror ilovasida ko‘rsatilganidek, Chiroqchi tumanidagi “Jar” MFYda ham bu borada harakat boshlandi. Belgilangan me’yoriy hujjatlar asosida tadbirkorlik yo‘nalishiga qiziquvchi yoshlar taklif etilib, yer ajratib berildi.

Anchadan buyon biror yo‘nalishda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishni maqsad qilib yurgan Salovat Suvonov ham tengdoshlari qatori bir qancha maqsadni ko‘zlagan holda belni mahkam bog‘lab ishga kirishadi.

— O‘sha vaqtda yigirma yoshda edim, — deydi S.Suvonov. — Tenderda qatnashishimni aytishdi. Shu yerning o‘zida nomigagina tender o‘tkazib, aytilgan o‘lcham qolib, to‘rt ham emas, 3,7 sotixdan yer ajratib berishdi. Bu kamlik qilishini aytib, e’tiroz bildirdik. Biror-bir yo‘nalishni tashkil etish uchun kengroq joy zarurligini ta’kidlasakda, inobatga olishmadi. Biznes-rejamni ham ko‘rsatdim, ammo quloq solishmadi. Aksincha, yosh ekanimni, loyiham ro‘yobga chiqmasligini ta’kidlashdi. Shunday bo‘lsa-da, tuman mutasaddilari bergan qop-qop va’dalarga ishonib, shu joyda tadbirkorlikka qo‘l urdim.

Hamon elektr toki yo‘q

Yosh tadbirkor dastlab qurilish uchun kerakli mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish harakatiga tushdi. Aynan shu yo‘nalishdagi mutaxassislardan o‘rganishlar olib bordi. Tajriba almashdi. Tumanda raqobati bo‘lmagan, anchagina xaridorgir, asosan, inshootlarning tashqi fasadi uchun ishlatiladigan plitkalar tayyorlashni rejalashtirdi. Shu maqsadda uskunalar xarid qildi. Ammo bu jihozlar elektr tokida ishlaydi. Bu yerda esa elektr yo‘q. Ish boshida va’da berilgan bo‘lsa-da, olti oy vaqt o‘tganiga qaramasdan, hamon jimlik hukmron. Bir necha bor murojaat qilib, mutasaddilardan ko‘mak so‘ralsa-da, turli bahonalardan nariga o‘tilmayapti.

— Boshida Yoshlar sanoat zonasida barcha imkoniyatlar yaratib beriladi, hech bir muammo bo‘lmaydi, deyishganida boshqacha tasavvurlar paydo bo‘lgandi, — deydi Salovat. — Oradan ikki yil o‘tsa-da, elektr muammosi hal etilmadi. Oxiri o‘tgan yildan boshlab shu hududga yaqinroq joyda yashovchi xonadon egalaridan iltimos qilib, sim orqali tok tortib kelib, ish boshladik. Mana, bir yil vaqt o‘tib ketdi. Yaqinda ko‘cha boshiga transformator o‘rnatib, elektr hal etilganini aytishdi. Lekin qolganiga o‘zimiz sim olib kelib, tortib ketishimiz kerak ekan. Kuni kecha 300 metr sim sotib olib keldim, hali shu transformatorda tok bor-yo‘qligini aniq bilmaymiz...

Bu holatga ajablanmasdan iloji yo‘q. Boisi, davlatimiz rahbarining maqolamiz avvalida nomi keltirilgan qaroriga ko‘ra, ko‘rsatib o‘tilgan barcha manzillarda Yoshlar sanoat zonalari 2022-yil 1-yanvarga qadar to‘liq ishga tushirilishi lozimligi ta’kidlangan. Bundan tashqari, qarorning 3-ilovasida Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta’minlashning manzilli dasturi belgilab berilgan. Afsuski, bunga hech bir kishi e’tibor qaratmagan.

Auksion qachon o‘tkaziladi?

“Salovat Suvonov industries” MCHJ tashkil etib, qurilish plitkalari bilan nafaqat Chiroqchi, balki Yakkabog‘ va Qamashi tumanlari aholisi talablarini bajarishni eplay olgan 20 yoshli ishbilarmon keyinchalik qo‘shimcha tarmoq ochish harakatiga tushdi. Tikuvchilik sexi ochib, bu yo‘nalishda buyurtmachilar bilan hamkorlik o‘rnatdi. Lekin buning uchun alohida joy kerak. Yoshlar sanoat zonasida o‘zi uchun ajratilgan Lotda qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish bilan band edi. Ilojsiz qolgach, shu hududdagi foydalanilmayotgan imoratni ijaraga olib, faoliyatini boshlab yubordi. Qiziq tomoni, aynan shu manzilda aksariyat lotlar ishlatilmasdan, go‘yoki egasizdek tashlab qo‘yilgan. Ayrimlarida deyarli qurilish ham qilinmagan. Sanoqli kishi faoliyat yuritmoqda. Ammo ishlayman, ish o‘rni yaratib, iqtisodiyot rivojiga hissa qo‘shaman, degan fuqaro oldidagi to‘siqlarni bartaraf etishga tuman mutasaddilari negadir beparvo.

Salovat Suvonovning ta’kidlashicha, u faoliyatini kengaytirish maqsadida qo‘shimcha yer so‘ragan. Ammo “tender ana o‘tkaziladi, mana o‘tkaziladi” bilan kun o‘tib bormoqda. Aslida, 2022-yil 13-iyunda Prezidentimizning “Maxsus iqtisodiy, kichik sanoat, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyati samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilingan. Mazkur farmonga asosan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi davlat muassasasi shaklidagi kichik sanoat zonalarini boshqarish bo‘yicha yagona direksiyalar kichik va yoshlar sanoat zonalarini boshqarish bo‘yicha yagona direksiyalar sifatida qayta tashkil etilishi hamda ularga qo‘shimcha ravishda yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini rivojlantirish, ular hududidagi yer maydonlari, bino va inshootlarni elektron onlayn auksionga chiqarish kabi bir qator vazifalar yuklangan. Shunday bo‘lsa-da, ishlash istagidagi kishilarning vaqti behuda ketmoqda. Yon-atrofidagi yerlar yantoqzor bo‘lib yotsa-da, mehnat qilib, faoliyatini yanada kengaytirib, ish o‘rni yarataman degan tadbirkor tender qachon o‘tkazilishini kutishga majbur.

Anglashilmovchilik ortidan ergashgan tashvish

Dastlabki damlarda Yoshlar sanoat zonasida bir olam orzular og‘ushida belni mahkam bog‘lab ishga kirishgan yosh yigit tadbirkorlik yo‘lida bir qator muammolarga duch kelaman deb o‘ylamagandi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tadbirkorlarga yaratilayotgan imkoniyatlardan foydalanish istagida edi. Afsuski, ish boshlaganidan buyon boshi muammodan chiqmay qoldi. Yigitning aytishicha, gohida faqat murojaat qilish va uning ijrosi ta’minlanishini kutish bilan vaqti ketmoqda.

— Guvohi bo‘lganingizdek, ish joyimiz sanoat zonasiga tegishli, — deydi S.Suvonov. — Ammo kadastr bo‘limidagilarning anglashilmovchiligi oqibatida bu yer mening nomimga xususiy mulk sifatida hisoblanib, shu asosda soliq solingan. Aslida, bu mulk shaxsiy emas, balki Yoshlar sanoat zonasiga tegishli. Shunday bo‘lsa-da, natijada 16 million so‘mdan ortiq soliq qarzdorligi kelib chiqdi. Buning noto‘g‘ri ekaniga aniqlik kiritish uchun ham ancha vaqt ketdi. Keyin haqiqatan adashib hisoblangani ravshan bo‘lgach, qarzdorlik bekor qilindi. Joriy yil boshida yana tushunmovchiliklar kelib chiqib, yer noto‘g‘ri hisoblab yuborilgan. Buning oqibatida hali-hanuzgacha ovoraman.

Yosh tadbirkorning Chiroqchi tumani hokimiga aytadigan so‘zlari ko‘p. Faqat unga quloq tutilsa, amaliy yordam berilsa bo‘lgani. Bu mavzuga yana qaytamiz.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Bilimi, mahorati, tajribasi nuqtayi nazaridan yuqori darajaga erishgan pedagog o‘quvchiga sifatli ta’lim bera oladi. O‘qituvchilarning bilimi oshirilib, yangi metodikalar, texnologiyalar o‘rgatilib, fikr, tajriba almashish imkoniyati yaratilayotgani ertaga bolalar bilimida aks etadi.

Xalqaro hamkorlik

SODDA VA MURAKKAB

CHET TILINI O‘RGATISHDA SAMARALI USULLAR QO‘LLANILISHI KERAK

Bugungi globallashuv davri insoniyatning zamon bilan hamnafas odimlashini talab etadi. Ayniqsa, ta’lim sohasini tubdan takomillashtirish va bir necha xorijiy tilda erkin muloqotga kirisha oladigan jamiyatni shakllantirish davr talabiga aylandi.

Chet tillarni o‘rganishni ommalashtirish, bir necha xorijiy tilda so‘zlasha oladigan kadrlar tayyorlash ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida ko‘rilmoqda. Zero, jamiyatning barcha bo‘g‘inlari rivojida ilg‘or, bir necha tilda erkin so‘zlashadigan, o‘z fikriga ega, salohiyatli yoshlar muhim o‘rin tutadi. Ular dunyo hamjamiyatida davlatning ravnaqi va xalqaro darajadagi o‘rnini belgilash bilan bir qatorda barcha sohalarga yangilik olib kiruvchi qatlam sifatida qadrlanadi.

Shu bois, davr talablariga mos, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, turli sohalarda xorijlik mutaxassislar bilan erkin raqobatga kirisha oladigan yoshlarni tarbiyalashga katta e’tibor qaratilmoqda. Bugun maktab bitiruvchisi kamida ikkita chet tilini bilishi zarurati yuzaga chiqdi. Bu esa o‘qitish tizimini yanada zamonaviy metodlar bilan takomillashtirish, har bir maktabda o‘qituvchi va o‘quvchilarning xorijiy tillarni o‘rganish darajasini belgilash, hududlarda maktablar reytingini ishlab chiqish, xorijiy tillarni o‘rgatish imkoniyatini eng chekka qishloqlardagi ta’lim muassasalarida ham yaratish ishlarini yangi bosqichga ko‘tarishni taqozo etmoqda.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida 1000 nafar tarbiyachi va o‘qituvchini xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish vazifasi belgilangan. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi bilan yaqindan tanishish, dunyoning ilg‘or ta’lim modellarini o‘rganish, amaliyotga tatbiq etish maqsadida qator davlatlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yib kelmoqda.

Fransiyaning O‘zbekistondagi elchixonasi bilan birgalikda fransuz tili fani o‘qituvchilarining bilimini uzluksiz oshirish bo‘yicha loyiha bunga bir misol. Loyiha doirasida 2024/2025-yillarda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 400 nafar fransuz tili fani o‘qituvchisining bilimini baholash, tajribali mutaxassislar tomonidan onlayn va oflayn qisqa muddatli malaka oshirish kurslari o‘tkazish, Fransiyaning nufuzli oliygohlariga stajirovkaga yuborish, xalqaro til bilish imtihonlariga tayyorlash va fransuz tilini bilish bo‘yicha DELF/DALF diplomini olishiga imkoniyat yaratish ko‘zda tutilgan.

— Joriy yil 7-8-may kunlari 1000 nafarga yaqin fransuz tili o‘qituvchisining bilimi “EV@LANG” platformasi orqali baholandi va 120 pedagog keyingi bosqichga tavsiya etildi, deydi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi boshqarma boshlig‘i Nargiza Qo‘chqorova. — Fransiyaning tajribali mutaxassislari tomonidan shu yil 10-14-iyun kunlari Toshkent va Samarqand fransuz alyanslarida 120 o‘qituvchi malaka oshirish kurslarida o‘qitildi.

Shu yil 23-iyunidan 7-iyuliga qadar 59 pedagog Fransiyaning Frankofoniya til o‘qitish markaziga stajirovkaga yuborildi. O‘qituvchilar stajirovka davomida ta’limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ta’lim tizimidagi o‘xshashlik hamda tafovut, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish kabi mavzularda mashg‘ulot o‘tadi.

— Fransiya ta’limida dars boshlanishidan oldin mashg‘ulotga tayyorlanish, ya’ni kun mavzusiga kirish deb nomlangan bo‘lim borligi menga juda ma’qul bo‘ldi, — deydi Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi 20-maktabning fransuz tili o‘qituvchisi Dilfuza Eshpo‘latova. — O‘quvchi kun mavzusida o‘z fikrini bildirishi mumkin. Bu usulda o‘quvchi fikrini bir vaqtning o‘zida yozma va og‘zaki usulda bayon etadi. Odatda darsimni uyga vazifa yoki yangi vazifa bilan boshlar edim. Diktantni esa so‘zning soniga qarab olar edik. Lekin Fransiyada diktantni grammatikaga bog‘lab olish afzalligini o‘rgandim. O‘tilgan grammatik mavzuni tekshirish maqsadida diktant olinishi samarali ekan. Kitobda bo‘lmagan ma’lumotlarni doskaga yozib, o‘quvchilarga ko‘chirtiramiz, Fransiyada esa zamonaviy sinfxonalardagi printer, skaner, elektron doska 45 daqiqaning ancha mazmunli va unumli o‘tishiga xizmat qilishini ko‘rdik.

Bilimi, mahorati, tajribasi nuqtayi nazaridan yuqori darajaga erishgan pedagog o‘quvchiga sifatli ta’lim bera oladi. O‘qituvchilarning bilimi oshirilib, yangi metodikalar, texnologiyalar o‘rgatilib, fikr, tajriba almashish imkoniyati yaratilayotgani ertaga bolalar bilimida aks etadi. Shu ma’noda, bir guruh pedagoglarning ilg‘or xorijiy davlatlarda stajirovka o‘tashi kasbiy mahorati oshishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

— Ikki haftalik o‘qish davomida og‘zaki va yozma nutqni shakllantirish bo‘yicha turli interfaol metodlardan foydalangan holda og‘zaki va yozma nutq ustida ishladik, — deydi Samarqand viloyati Ishtixon tumanidagi 17-maktabning fransuz tili o‘qituvchisi Gulsanam Shodiyeva. — Bu jarayon soddadan murakkabga qarab davom etdi. Oddiy, kundalik turmushdan tortib, yuqori darajadagi ijtimoiy hayot bilan bog‘lanadigan barcha mavzularni qamrab olgan holda darslar o‘tildi. Yozma nutq ko‘nikmasini shakllantirish uchun xuddi shunday mashqlardan foydalanildi. O‘rgangan bilim va ko‘nikmalarimni o‘quvchilarimga o‘rgatish va ularni xalqaro darajada tan olingan sertifikatlar olishga tayyorlashni maqsad qilib qo‘ydim. Xalqaro tan olingan sertifikatlarga ega bo‘lish o‘quvchilarimga dunyo eshiklarini ochish uchun kalit bo‘lib xizmat qilishini, Fransiyada va fransuz tili rasmiy til bo‘lgan mamlakatlarda o‘qishi mumkinligini tushuntiraman.

Shu kunlarda yana 60 o‘qituvchi Fransiyaning Frankofoniya til o‘qitish markazida stajirovka o‘tamoqda.

Joriy yil avgustda Fransiyaning tajribali mutaxassislari tomonidan onlayn shaklda 120 nafar o‘qituvchi uchun qisqa muddatli malaka oshirish kurslari tashkil etilishi ko‘zda tutilmoqda. Toshkent va Samarqand fransuz alyanslari loyihasida ishtirok etgan barcha fransuz tili fani o‘qituvchilari DELF/DALF xalqaro imtihonini topshiradi. Imtihon natijalariga muvofiq pedagoglarga DELF/DALF xalqaro diplomi beriladi. Mazkur loyiha 2025-yilda ham davom ettiriladi va 300 ga yaqin o‘qituvchi qamrab olinadi.

Xorijdagi ilg‘or tajribani chuqur o‘rganish, ta’lim jarayonini yangilash, eng zamonaviy o‘qitish metodikalarini qo‘llash strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Hayotimni o‘zgartirgan kun

KRANCHI QIZ: “Yuqoridan osmon ham, yer ham go‘zal ko‘rinadi”

Kunlarning birida maktabdan qaytayotib, mahallasida yangi qad rostlayotgan ko‘p qavatli uylarni qiziqsinib kuzatayotgan Sevinchning e’tiborini qurilishda kran boshqarayotgan ayol kishi tortdi. Hali umrida bunday ulkan texnikani ayollar boshqarganini uchratmagan va hatto eshitmagan ham edi. Ancha vaqt kranchining xatti-harakatini kuzatgach, uyiga yo‘l oldi.

Shu kundan boshlab qizning tinchi buzildi. Har kuni qurilish maydoniga kelib, kranchini kuzatadigan bo‘ldi. Bir marta hatto kran boshqarayotgan opa bilan suhbatlashishga ham erishdi.

— Assalomu alaykum, opajon, — dedi Sevinch peshonasidagi terni artgancha krandan tushib kelgan ayolga yaqinlashib.

— Vaalaykum assalom, — kranchi ayol hayratlanib qarab turgan qizning yaqiniga kelib alik oldi. — Bu yerda nima qilyapsan?

— Sizni kuzatyapman. Kran boshqarishingizni ko‘rish uchun har kuni shu yerga kelaman. To‘g‘risi, sizga havas qilaman. Qo‘rqmaysizmi?

— Yo‘q, o‘rganib ketganman. Muhimi, kran boshqarish sirlarini mukammal o‘rganish kerak. Shunda ish unchalik og‘ir tuyulmaydi, mashaqqati ham ortga chekinadi.

Sevinch shu kuni kranchi opa bilan ancha vaqt suhbatlashdi va bu muloqot qizning yodida bir umr muhrlanib qoldi. Kelgusida aynan kran boshqaruvchisi bo‘lishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi.

Navoiy viloyatida keng bunyodkorlik ishlari davom etmoqda. Ayniqsa, ko‘p qavatli uylarning qurilishi hududlar ko‘rkiga ko‘rk qo‘shmoqda. Bu jarayon navoiylik Sevinch Saidovaning hayotida ham burilish yasadi va maqsadlari ro‘yobiga xizmat qildi.

— Mahallamizdagi qurilishda ayol kishi kran boshqarayotganini ko‘rib, to‘g‘risi, hayratimni yashirolmaganman, — deydi Sevinch Saidova. — Aynan shu voqea tufayli texnikaga mehrim tushgan. Kranchi opaning balandlikdan qo‘rqmasligi, matonati va mahoratiga qoyil qolganman. U bilan yaqindan suhbatlashgach, menda ham kran boshqarish istagi tug‘ildi. Maktabni bitirganimdan so‘ng o‘quv markazlarida aynan shu yo‘nalish bo‘yicha o‘qidim, kran texnikasini boshqarishni o‘rgandim. Bir-ikki yillik amaliyotdan keyin mustaqil ravishda kran boshqardim.

Ayni paytda qahramonimiz Navoiy mashinasozlik zavodining ishlab chiqarish birlashmasi ta’mirlash-mexanika sexida kran mashinisti bo‘lib ishlab kelmoqda. Ushbu zavod Navoiy kon-metallurgiya kombinatining tarkibiy bo‘linmasi bo‘lib, mamlakatimizdagi eng yirik mashinasozlik korxonasidir. Bu yerda 3000 dan ortiq ishchi-xodim fidokorona mehnat qilmoqda. Ularning 175 nafari ta’mirlash-mexanika sexida Sevinch Saidova bilan yelkama-yelka ishlaydi. Ularning 56 nafari xotin-qizlar.

— Bu yerda kasbim bo‘yicha ko‘p narsa o‘rgandim. Dastlab kelganimda 5-10 tonnagacha yuk ko‘tarishga mo‘ljallangan kran texnikasini boshqardim. Yillar davomida tajriba to‘pladim. Hozir 100 tonna va undan ortiq yuk ko‘tarishga mo‘ljallangan kranni ham boshqaryapman, — deydi Sevinch Saidova.

Bugun Sevinch mehnat qilayotgan zavod brendi ostida ishlab chiqarilayotgan metall va yog‘ochga ishlov beruvchi dastgohlar, yirik avtomobillar uchun murakkab detallar va boshqa yuqori sifatli mahsulotlar nafaqat mamlakatimiz korxonalari, balki xorijiy davlatlarga ham yetkazib berilmoqda. Korxonada tayyorlanayotgan o‘ta yuqori aniqlikdagi sifatli metall konstruksiyalar, uskuna va jihozlar hamda turli o‘lchamdagi ehtiyot qismlarga talab oshib boryapti. Zavod jamoasi kombinat bo‘linmalari uchun turli rusumdagi dastgohlar, jihozlar, nostandart uskunalar, ehtiyot qismlar, nasos, armatura va konveyer roliklari kabi ko‘plab mahsulotlarni ishlab chiqarib, o‘z vaqtida yetkazib bermoqda. Zavod tomonidan quyma mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi yildan yilga ko‘payib bormoqda. Bu yutuqlarda, albatta, Sevinch kabi yoshlarning ham salmoqli hissasi bor.

Yoshlar kuni arafasida Prezidentimiz farmoni bilan Sevinch Saidova “Kelajak bunyodkori” davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

— Bu mukofot bilan taqdirlanganim hamda davlatimiz rahbari bilan uchrashganim hayotimdagi eng quvonchli va unutilmas voqeadir. Onam olamdan o‘tgan, otam bor. Ushbu yutug‘imdan u behad quvonib, duo qildi. Qolaversa, korxonadagi hamkasblarim ham bu e’tirofdan juda mamnun bo‘ldi. Kran mashinisti kasbini tanlaganimdan mamnunman. Bu yurtda har bir inson e’tiborda, mehnati esa munosib qadr topishiga yana bir bor amin bo‘ldim. Bundan keyin ham shijoat bilan ishlab, vatanimiz ravnaqi uchun xizmat qilishda davom etaman, — deydi “Kelajak bunyodkori” davlat mukofoti sohibasi Sevinch Saidova.

Yurtimiz — yoshlar mamlakati. Ular qaysi soha yoki kasbda bo‘lmasin, shijoat va matonat bilan maqsadi tomon intilayotganini Sevinch kabi yoshlar timsolida ko‘rish mumkin. Bu esa yurtimizning ertangi kuni yanada yorug‘ va farovon bo‘lishidan dalolat.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Iste’dod

IMKONIYATDAN FOYDALANA BILISH SAN’ATI

30-iyun — Yoshlar kuni arafasida Prezidentimizning tegishli qarori bilan qobiliyatli, intiluvchan va tashabbuskor yoshlardan bir guruhi davlat mukofotlari bilan taqdirlangan edi. Ular orasida amudaryolik Abbosbek Yo‘ldoshev ham bor. Uning “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti bilan taqdirlanishi ushbu hudud yoshlarini ham to‘lqinlantirib yubordi.

Farzandining musiqaga qiziqishini anglagan Bahromjon va Muhabbatxon uni Qipchoq shaharchasidagi 21-bolalar musiqa va san’at maktabiga o‘qishga berishga qaror qilganida Abbosbek 4-sinf o‘quvchisi edi.

— Murabbiyim Rajabboy Abdullayev musiqa maktabida sozni qo‘limga ushlatib, san’at sir-asrorlaridan ilk saboq bergan. O‘qishim davomida ko‘plab tanlovlarda qatnashdim, — deydi Abbosbek.

Tabiatan tirishqoq, o‘z ustida ishlashdan aslo charchamaydigan Abbosbek umumta’lim maktabi o‘quv dasturini o‘zlashtirish bilan birga musiqa va san’at maktabida ham saboq oldi. Tinimsiz izlanishlar samara berib, bolalar musiqa va san’at maktablari o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan Muxtor Ashrafiy, Muhiddin Qoriyoqubov nomidagi ko‘rik-tanlovlarda bir necha bor sovrindor bo‘ldi. Erishgan yutuqlari Abbosbek qalbidagi orzularga qanot bag‘ishlab, kelajak sari oydin yo‘llarni ochib berdi.

Umumta’lim maktabining 9-sinfini tugatgan Abbosbek Yo‘ldoshev Nukus ixtisoslashtirilgan san’at va madaniyat maktabiga imtiyozli ravishda o‘qishga qabul qilindi. Ushbu maktabda taniqli sozanda va pedagog Nesipbay Alekseyevdan musiqa sirlarini o‘rgana boshladi.

Qoraqalpog‘istonlik san’atsevar yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2021-yil 5-aprelda O‘zbekiston davlat konservatoriyasining Nukus filiali ochildi. Nufuzli ta’lim maskanining asosiy vazifalaridan biri milliy musiqa san’ati sohasida yuqori malakali bakalavr va magistrlarni, shuningdek, sohada chuqur tadqiqotlar o‘tkazish salohiyatiga ega pedagog kadrlarni tayyorlashdan iborat. OTMning ochilishi Abbosbek Yo‘ldoshev kabi san’atsevar yoshlarning o‘z iqtidorini amalda namoyon etishi, tanlagan yo‘nalishi bo‘yicha chuqur bilim olishi uchun katta imkoniyat berdi.

Abbosbek o‘qish bilan birga turli festival, ko‘rik-tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, har safar g‘oliblar safidan joy oldi. Xususan, 2021-yilda bo‘lib o‘tgan xalq cholg‘u ansamblarining respublika festivalida O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali xalq cholg‘u ansambli a’zosi sifatida ishtirok etib, jamoa muvaffaqiyatiga munosib hissa qo‘shdi.

— Oliygohda ta’lim olish barobarida barcha tanlovlarda iste’dodimni namoyish qilish, qoraqalpoq san’ati dovrug‘ini taratishga intilaman. Xususan, 2022-yilda bo‘lib o‘tgan “Poeziya gulshani” onlayn ko‘rik-tanlovida maxsus diplom bilan taqdirlangan bo‘lsam, 2022-yilda Germaniyada o‘tkazilgan xalqaro “GRAND PRIX” onlayn tanlovida faol ishtirokim uchun O‘zbekiston davlat konservatoriyasi zalida bir martalik bepul konsert berish imkoniyatini qo‘lga kiritdim, — deydi Abbosbek. — Shuningdek, 2022/2023-o‘quv yilida yutuqlarim yanada samarali bo‘ldi. 2022-yilda “O‘z mutaxassisligi bo‘yicha yilning eng bilimli talabasi” nominatsiyasi g‘olibi bo‘ldim.

Ko‘ksiga davlat mukofotini taqqan mard o‘g‘lon o‘z muvaffaqiyatlari bilan ota-onasi, ustozlarini quvontirdi. Ularning oq fotihasi Abbosbekni yangi marralarga ruhlantirib, kelajak sari dadil qadam tashlashga undayveradi.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Biz oddiy hunarmand hayoti nima uchun dunyo sayyohlari qalbini zabt etgani, e’tiborini tortgani borasida juda chuqur izlandik. Shuni anglab yetdikki, Tohirjon Haydarov bugungi kunimizning milliy xarakterini aks ettirayotgan, izlanayotgan zamonamiz jadidlaridan ekan. Demak, u haqdagi asar ham yangi ruhda, uslubda bo‘lishi, jahon sahnalaridagi taraddud nafasini ifodalashi kerak!

YANGI O‘ZBEKISTON
2024-yil 12-iyul, 139-son
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Yangi spektakl

“KREATIV FIKRLASH PAYTI KELDI”

ZAMONAMIZ QAHRAMONI HAQIDAGI SAHNA ASARIGA CHIZGILAR

Muxtasar TOJIMAMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Farg‘ona viloyati musiqali drama teatrida dramaturg Ilhom O‘rmonning “Kulolning armoni” nomli asari asosida sahnalashtirilgan spektakl premyerasi bo‘lib o‘tdi. Rishton kulolchilik maktabidan yetishib chiqqan o‘ziga xos, betakror uslubini yarata olgan usta, “Do‘stlik” ordeni sohibi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi hamda “Hunarmand” uyushmasi a’zosi Tohirjon Haydarovning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan asarda bugungi o‘zbek hunarmandi yuragidan kechayotgan o‘ylar, iztiroblar, orzular o‘ziga xos talqinda ifodalangan. Rejissyor Obidjon Abdullayev sahnalashtirgan asarning ta’sirchan va hayotiyligi sahnalashtiruvchi rassom Furqat Qo‘chqorov yaratgan dekoratsiya va bezaklar orqali ta’minlangan. Bosh qahramon obrazini aktyor Akmal Mirzayev mahorat bilan talqin qilgan.

“Dunyoni qishlog‘imga olib kelaman”

Har gal Rishton tumaniga kirib borganimizda usta kulol Tohirjon Haydarov aytib bergan bolalik xotiralari yodimizga tushadi. Bir kuni 14 yoshli Tohirjon enasiga “Bozorga sabzi sotgani borganimda bir amaki qaysi qishloqdan ekanimni so‘radi. “Jaloyirdanman”, desam, bizning qishlog‘imizni tanimadi. Nima uchun, enajon?” deb savol berganida onasi “Bolam, qishlog‘imizni tanishlari uchun sen o‘z hunaring yoki biliming bilan uning shonini dunyoga taratishing kerak”, deya javob beradi. Shunda Tohirjon “Men dunyoga chiqmayman, aksincha, dunyoni qishlog‘imga olib kelaman, mana ko‘rasiz!” degan ekan. Chindan ham bugun “Tohir kulol oilaviy uy-muzeyi”ni izlab kelayotgan nafaqat yurtdoshlarimizning, balki xorijlik sayyohlarning qadami uzilmaydi. Demak, 14 yoshli Tohirjonning orzusi amalga oshib, Jaloyir qishlog‘ini dunyo tan olyapti!

— Spektakldagi barcha voqealar usta hunarmandning bolaligida yuragiga tukkan ushbu maqsadi atrofiga qurilgan, — deydi san’atshunos Shohrux Abdurasulov. — Millatning sha’ni uchun kurash, milliy qadriyat va an’analarni tiklash g‘oyasi ilgari surilgan. Zero, har bir inson o‘z kasbi, hunari va bilimi bilan vatani, millati taraqqiyotiga xizmat qilishi kerak. Kulol Tohirjon Haydarov hunarmandlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar tufayli davrimizga fayz berayotgan zamonamiz qahramonlaridan. Iste’dodli va yosh rejissyor Obidjon Abdullayev sahnalashtirgan “Kulolning armoni” sahna asari juda yaxshi taassurot qoldirdi. Badiiy jihatdan ham, g‘oyaviy jihatdan ham spektakl g‘oyat puxta ishlangan. Teatr san’atining barcha ifoda vositalari — kuy, qo‘shiq, xoreografik harakatlar, stenografiya o‘z o‘rnida qo‘llangan. Eng muhimi, badiiy jihatdan yaxlit spektakl dunyoga kelgan.

Ko‘za va laganlarning oromijon suhbati

Tomoshabin va mutaxassislar e’tiroficha, usta yasagan sopol buyumlarning kulol atrofida harakatlanishi, jonlanishi sahnadagi ijodiy muhitga yangicha ruh bag‘ishlagan. Qadimiy ko‘za va laganlarga noodatiy liboslar tanlangan. Ayni g‘ayritabiiy jonlantirish juda yaxshi topilma sifatida e’tirof etildi.

— Tohirjon Haydarov nafaqat hunarmandlar ishtirokidagi, balki viloyat ijodkorlari jamlanib, mushoira qiladigan

dilbar anjumanlarda ham qatnashib turadi, — deydi ssenariy muallifi Ilhomjon O‘rmonov. — Uchko‘prikdagi ijodiy uchrashuvlardan birida usta hunarmand O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf bilan bo‘lgan bir voqeani hayajon bilan so‘zlab berdi. Uning so‘zlaridan ta’sirlanib, dastlab “Kulolning armoni” degan she’r yozdim. She’rdan bahramand bo‘lganlar ayni mavzuda drama yozishga undadi. Pyesa tayyor bo‘lgach, uni ustozim — O‘zbekiston san’at arbobi, professor Karim Yo‘ldoshev o‘qib ko‘rib, kerakli maslahatlar berdi. Iste’dodli yosh rejissyor Obidjon Abdullayev bilan hamkorlikda ish boshlar ekanmiz, asarni har doimgidan o‘zgacha uslubda sahnalashtirishga ahd qildik. Ya’ni hunarmand qalb qo‘rini bag‘ishlagan ko‘za va laganlarni jonlantirishga kelishdik.

Jahon sahnalaridagi taraddud nafasi

Taniqli aktyor Yevgeniy Lebedev “Ot haqida qissa” spektaklidagi ijrosi haqida to‘xtalib, bunday intervyu bergan edi: “Stanislavskiy aktyorlarga bolalarni o‘rganish, ularning qanday o‘ynayotganini diqqat bilan kuzatish lozimligini bejiz ta’kidlamagan. Chunki bolalar doimo tasavvurdagi predmetlar bilan yashaydi: ularning qo‘lidagi tayoq — ot, stul — kema, qo‘g‘irchoq esa jonli insonga aylanadi. Lekin biz, kattalar tasavvur qilish bo‘yicha bolalar oldida ancha no‘noqmiz. Nazarimda, Xolstomerning o‘limiga ishonish uchun tomoshabin qahramonimning bo‘ynidan oqayotgan qonga o‘xshash qizil bo‘yoqni ko‘rishi shart emas. Ingichka qizil tasmalarga ishora qilish zakiy tomoshabin uchun yetarli. Shunda u fantaziyasini ishga soladi va otning o‘limiga ishonadi. Har qanday san’at asarida qanchalik naturalizmdan yiroqlashsak, shunchalik tabiiylikka erishamiz”.

— Kreativ fikrlash va yondashuv payti keldi, — deydi rejissyor Obidjon Abdullayev. — Jahon sahnalarini allaqachon yangi uslub va modernistik qarashlarni ifodalovchi asarlar to‘ldirib bo‘lgan. Biz oddiy hunarmand hayoti nima uchun dunyo sayyohlari qalbini zabt etgani, e’tiborini tortgani borasida juda chuqur izlandik. Shuni anglab yetdikki, Tohirjon Haydarov bugungi kunimizning milliy xarakterini aks ettirayotgan, izlanayotgan zamonamiz jadidlaridan ekan. Demak, u haqdagi asar ham yangi ruhda, uslubda bo‘lishi, jahon sahnalaridagi taraddud nafasini ifodalashi kerak! Spektaklda ko‘plab ramziy topilmalardan foydalanganmiz. Shu bois, ko‘rsatilayotgan voqelikni ongli ravishda emas, xayol chig‘irig‘idan o‘tkazib, falsafiy tarzda anglash va qabul qilish talab etiladi.

Yosh rejissyor Obidjon Abdullayev hamisha yangilikka intiladi. Dastlab asarni o‘qib chiqqach, uni sahnalashtirish ko‘p vaqt talab etishini, bu ijodiy jarayon oddiy bir hunarmandning emas, balki ma’naviy-ma’rifiy yuksalish ishtiyoqidagi zamondoshimizning ibratli hayotini aks ettirishi lozimligini ta’kidlagan. Rejissyor sahnalashtirish jarayonida Tohirjon kulolning muzey-ustaxonasiga borib yurganida har bir ko‘za va laganga bitilgan tariximizdan xabar berguvchi bitiklaru mutafakkirlarning qimmatli so‘zlari tushlariga kirib chiqar, go‘yo har bir buyum ijodkor bilan so‘zlashar edi. Axir hunarmand ularning har biriga katta mas’uliyatni — dilbar

she’r va hikmatlar sabog‘ini bugungi kun insonlari qalbiga jo qilish vazifasini yuklagan. Ana shu o‘y xayolidan o‘tishi bilan rejissyor bu asarni O‘zbekiston teatrlari uchun bir oz yangilik hisoblanuvchi saund-drama janrida sahnalashtirishga ahd qiladi. Ushbu janrdagi asarda musiqa yetakchi o‘rin tutadi. Buni qarangki, hamma kuy-qo‘shiqlar repetitsiya jarayonida tug‘ildi. Ijodkor ko‘proq Umar Hayyom ruboiylaridan ilhomlanar, milliy ruhiyatimizga yaqin musiqalarni tanlashga harakat qilar edi. Hunarmandni bir dushman deb biluvchi sobiq sovet davrining tanazzulli kunlarini ifodalaydigan musiqani tanlash esa o‘ziga xos mashaqqat talab qildi.

“Kulol uy-muzeyi — sevimli maskanimiz”

— Ikki yildirki, turmush o‘rtog‘im Maryamxon bilan Farg‘ona davlat universitetida shartnoma asosida ishlayapmiz, — deydi eronlik o‘qituvchi Farzad G‘afforzoda. — Ijtimoiy tarmoqlarda Tohir kulol oilaviy uy-muzeyi haqida o‘qiganimizda, to‘g‘risi, juda hayajonlandik. Chunki boshqa davlatlarga borganimizda faqat muzeylarni tomosha qilish imkoniga ega bo‘lganmiz. Mazkur oilaviy uy-muzeyda esa hayot o‘zgacha: o‘z qo‘lingiz bilan dastgohda



ko‘za yasashingiz, Tohir kulol o‘choqda damlab bergan palovning mazasini tatib ko‘rishingiz va tarixning sirli bag‘riga usta hunarmand bilan sayohat qilishingiz mumkin. Spektakl premyerasiga ham bajonidil bordik. O‘zbek dramaturgiyasi yangiliklaridan bahramand bo‘ldik. Eng muhimi, kulolning o‘z vataniga, xalqiga muhabbati juda chiroyli ochib berilgan.

Uy-muzeyga kelayotgan sayyohlarni ta’sirlantirgan yana bir voqea shuki, Tohir aka nafaqat kulol, balki shoirtabiat inson. 200 yillik tarixga ega qo‘qonaravani bizga soting, degan xorijlik mehmonga “Dunyodagi eng katta mablag‘ni tortiq etsangiz ham sotmayman. Chunki bu arava ajdodlarimizga tegishli”, deya javob qaytargan. O‘z javobidan qanoatlanmay, yurt haqidagi she’rlardan birini o‘qib bergan.

“Xalqimga, vatanimga kerakman!”

— Tohirjon Haydarov 2000-yilgacha “Mushtum” jurnali bilan ijodiy hamkorlik qilgan, — deydi O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning rafiqasi, shoira Nazira as-Salom. — U haqda Muhammad akadan ko‘p bora eshitganman. Tohir aka chizgan karikaturalar o‘tgan asrning 70-yillari o‘rtalaridan matbuotda chop etila boshlagan. U har safar tahririyatga borganida jurnal bosh muharriri Ne’mat Aminovning xonasida o‘tadigan ko‘plab ijodiy suhbat va mushoiralarga guvoh bo‘lgan. Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid kabi el sevgan ijodkorlar bilan tanishib, suhbatlashgan, ularning yangi she’rlari taqdimotida qatnashgan. Muhammad Yusuf o‘sha mashhur “Parijning eng go‘zal restoranlarin bitta tandiringga alishmasman men” degan misralarini ham ilk bora o‘sha

Zamondoshimiz hayotining sahna asariga aylanishi yurtimizda hunarmandlikka, milliy an’ana va qadriyatlarimizga qaratilayotgan yuksak e’tibordan dalolat. O‘z baxtu kamolini el-yurt ravnaqi, shonu shavkati bilan bog‘lagan har bir inson qadrlanar ekan, qalbidagi muhabbat, sadoqat, ijodiyot gulxani yanada ko‘klarga o‘rlab boraveradi.

davrada shoir do‘stlariga o‘qib bergan. Ushbu misralardan ta’sirlangan usta hunarmand shoirning “O‘zbekiston” she’rini sopol laganga igna bilan o‘yib yozadi. Muhammad aka Rishtonga borgan chog‘ida hunarmand o‘sha laganni ko‘rsatadi. Shoir laganni menga sovg‘a qiling, deydi. Kulol esa “Yo‘q, bu laganni hozircha sizga bera olmayman. Naqsh va jilolari maromiga yetmagan. Keyingi safar uchrashganimizda uni, albatta, sizga sovg‘a qilaman”, deya javob qiladi. Biroq ko‘p o‘tmay, xalqimizning sevimli shoiri vafot etgani haqidagi xabarni eshitadi. Hunarmand ushbu xabarni eshitganidan keyingi iztiroblarni spektakl jarayonida aktyor shu qadar maromiga yetkazib ko‘rsatib berdiki, bu lavha nafaqat meni, balki barcha tomoshabinlarni yig‘latdi.

* * *

Spektakl namoyishi davomida tomoshabinlar bir necha marta aktyorlar ijrosini qarsak va samimiy e’tiroflar bilan olqishladi. Tomoshadan so‘ng o‘zi haqida yozilgan asar premyerasidan boshi ko‘kka yetgan zamonamiz qahramoni Tohirjon Haydarovni suhbatga chorladik.

— Spektaklni ko‘rayotib ko‘nglimdan juda ko‘p mulohaza, kechinmalar o‘tdi, — deydi u. — Shu lahzalarda haqiqiy baxtni his qildim. Angladimki, vatanimga, xalqimga kerakli insonman. Agar mendan omading nimada, deb so‘rashsa, boshimni baland tutib, “Bir oddiy hunarmandni qo‘llab-quvvatlaydigan xalqim borligi, shunday jannatmonand yurt farzandi ekanim mening omadim. O‘la-o‘lgunimcha shu yurt, xalq xizmatida bo‘lish asosiy vazifam”, deyman.

Zamondoshimiz hayotining sahna asariga aylanishi yurtimizda hunarmandlikka, milliy an’ana va qadriyatlarimizga qaratilayotgan yuksak e’tibordan dalolat. O‘z baxtu kamolini el-yurt ravnaqi, shonu shavkati bilan bog‘lagan har bir inson qadrlanar ekan, qalbidagi muhabbat, sadoqat, ijodiyot gulxani yanada ko‘klarga o‘rlab boraveradi. Ruhiy-ma’naviy ko‘tarilishning bu pallalari har bir yurtdoshimiz qalbiga chin yashash va kurashish zavqini, shijoatini baxsh etsa, ajabmas!

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2391.
42368 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Muxtasar Tojimamatova
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zA yakuni — 03:15 Topshirildi — 03:35